

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK 894.3:494.3

ESHBOYEVA OYSANAM XOLMAMATOVNA

OYBEKNING SO‘Z QO‘LLASH MAHORATI

5A220102 - «Lingvistika» (o‘zbek tili) mutaxassisligi bo‘yicha

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Samarqand – 2016

MUNDARIJA

Kirish. Ishning umumiy tavsifi	4-13
I BOB. Matn mazmunini tashkil etuvchi omillar va amallar.	14-31
1.1. Matn haqida umumiy tushuncha va ta'riflar	
1.2. Matnning lingvistik tahlili va so'z estetik imkoniyatlari	
II BOB. Oybekning so'z qo'llash mahorati va badiiy tasvir vositalari	32-60
2.1. Oybek ijodi haqida lingvistik qarashlar	
2.2. "Quyosh qoraymas" romanida badiiy tasvir vositalarining qo'llanish xususiyatlari	
III BOB. Matn mazmuni va modallik kategoriyasi	61-74
3.1. Matn mazmunida modallik kategoriyasi	
3.2. Emotiv, epistemik, deontik va aksiologik modalliklar	
Xulosa.	75-77
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.	78-82

Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili- bu millatning ruhidir, o'z tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan judo bo'lishi muqarrar.

I. KARIMOV.

KIRISH

Ishning umumiy tavsifi. Tilimizdagi ma'nolarning shakliy va moddiy ifodalanishi, lisoniy birliklardagi turfa ziddiyat va shakldagi ma'nolarning o'zgarishi, taraqqiyoti benihoya murakkab jarayon bo'lib, tilday sirli olamning tabiiy takomilini ta'minlaydigan bu zaruriy jarayonlarning qonuniyatlarini kashf etish til ilmidagi azaliy vazifalardan eng muhimidir. Abadiylikka muhrlangan bu qonuniyat so'z ma'no taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'ladi. Bu kuch ziddiyatlar va ularni ifodalovchi omillar natijasida namoyon bo'ladi.

Ma'no va uning taraqqiyoti masalasi tilshunoslikning eng muhim markaziy muammolaridan biri hisoblanishini til tizimidan xabardor har bir kishi juda yaxshi biladi. Tilshunoslik tarixining eng qadimgi davrlaridan boshlaboq ma'no va uning ifodasi – lisoniy birliklar o'rtasidagi munosabatning tabiati haqidagi bahs muttasil davom etib kelmoqda. Dunyo tilshunosligining paydo bo'lishi, taraqqiyotining ilk bosqichlarida ko'proq ayni shu muammoga, ya'ni so'zning ma'nosi va shakli o'rtasidagi munosabat masalasiga asosiy e'tibor qaratilgan.

O'zbek tilshunosligida keyingi yillarda badiiy adabiyot tili muammolari, muayyan bir ijodkorning tildan foydalanish mahorati, yozuvchining u yoki bu til sathi birliklarini qo'llashdagi o'ziga xosliklarni aniq va batafsil ochib berishga mo'ljallangan juda ko'plab tadqiqotlar yaratilib kelinmoqda. Bunday tadqiqotlarning debochasi sifatida bir qator ishlarni ko'rsatish mumkin. Ilk debochalar qatoriga Alisher Navoiyning nasriy va nazmiy asarlarining tili badiiy mahorat jihatidan o'rganilgan, ulug' mutafakkirning badiiy uslubiga xos lisoniy

vositalar mohiyatini ochib berishga harakat qilingan. Bugungi kunga kelib badiiy asar tili muammolari bilan shug'ullanishning jiddiy tus olganligi til birliklarining adabiy asarda namoyon bo'lish xususiyatlarini tobora oydin tasavvur qilishimizga, ularning badiiy adabiyotda shakllanishi va badiiy estetik ta'sirini kengroq doirada tushunishimizga ko'makchi vazifasini o'tab kelmoqda. Tilimizdagi barcha birliklar badiiy adabiyotda badiiy tasvir vositasi vazifasini bajarsa-da, ularning ekspressiv jihatdan ma'no anglatishi va adabiy asardagi lisoniy va badiiy-estetik vazifasini batafsil tahlil qilish uchun juda ko'plab tadqiqotlar yaratilishi lozim.

Tilning turli qirralarini uzviy tarzda birlashtirib, uni yaxlit bir butunlik, bir sistema sifatida o'rganuvchi tilshunoslik asrimizning 20-yillarida shakllandi va sistem-struktur tilshunoslik nomi bilan mashhur bo'ldi. Shuni aytib o'tish kerakki, Ferdinand de Sossyur asos solgan XX asr sistem tilshunosligi bag'rida o'nlab yangi lingvistik oqim va maktablar vujudga keldi, ularda ulkan zamonaviy yutuqlar qo'lga kiritildi.

Ma'lumki, tilshunoslikning lingvopoetikaga oid bugungi kun taraqqiyotida badiiy tilni o'rganishda ko'proq leksik birliklarning lingvopoetikasiga oid ishlar ko'zga tashlanadi. Adiblar badiiy asarlarining tilini chuqur tahlil etish, leksik-semantik, grammatik birliklarning asardagi badiiy-estetik qimmatini ochib berish va ayni lingvopoetik maqsadlar bilan yoritish borasida X.Doniyorov, S.Mirzayev, Q.Samadov, I.Qo'chqortoyev, M.Mirtojiyev, M. Yo'ldoshev, N.Mahmudov hamda Sh.Shoabdurahmonovlar alohida diqqatga sazovor bir qancha ishlarni amalga oshirishgan. Ko'rinib turibdiki, o'zbek tilshunosligida badiiy asar tilining lingvopoetikasi bo'yicha ancha-muncha ish qilingan. Ammo bu yo'nalishdagi tadqiqotlar doirasi qanchalik katta bo'lishiga qaramasdan, ular badiiy adabiyotimiz tarixida alohida o'rin tutadigan jiddiy asarlarning barchasini qamrab olgan deb bo'lmaydi.

“Sistemaviy tilshunoslikning dunyo bo'yicha keng tarqalishi turli sistemaga mansub tillarning ichki tuzilishini sistema sifatida tadqiq etishga e'tiborni kuchaytirdi. Tilning barcha sathlari sistemaviylik tamoyillari asosida o'rganila boshlandi. Xususan, o'zbek tilining fonetikasidan tortib sintaksisiga qadar bir qator

tilshunoslar tomonidan sistemaviy asosda tadqiq etildi. Bu o'zbek tilshunosligida katta burilish bo'ldi"¹. Asarda til birliklari juda xilma-xil shakllarda namoyon bo'ladi. Badiiy asar tili muallif oldiga asarning ta'sir kuchini kuchaytirish uchun tilning barcha fonetik, leksik va grammatik vositalaridan ustalik bilan foydalanish, tanlash va yozuvchining o'zigagina xos bo'lgan ifoda shakllarini yaratish imkoniyatini qo'yadi.

Mustaqillik sharofati bilan ma'naviyatimizning muhim sarchashmasi bo'lgan ona tilimizga hukumatimiz tomonidan jiddiy e'tibor berilmoqda. Milliy tilimizni tadqiq qilishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu nafaqat yozuvchilar uchun, balki kitobxon uchun ham bu sohada ma'lum tushunchaga ega bo'lish, imkon darajada sohaga oid leksikalarni mukammal o'rganishni taqozo etadi. Bu ishlarning barchasi albatta, prezidentimiz I.A. Karimov tashabbuslari bilan amalga oshirilmoqda. "Yoshlarni vatanga sadoqat, yuksak ahloq, ma'naviyat va ma'rifat, mehnatga vijdonan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash zarur"². Zotan, ta'lim jarayonini, o'qitish sifatini tubdan yaxshilash davlatimiz olib borayotgan ko'p qirrali siyosatda asosiy vazifalardan biri bo'lib qoldi. Uni amalga oshirish uchun esa ma'lum mavzu doirasida keng va atroflicha bilim beradigan hamda bu bilimlarni milliy istiqloq g'oyalari bilan, milliy mafkura va dunyoqarash hamda uzoq yillar davomida shakllangan ma'naviyatimiz bilan uzviy bog'lay oladigan darsliklar, o'quv qo'llanmalari zarur.

Tabiiyki, ana shu zaruriyat bilan bog'liq dunyoqarash tilshunoslik ilmini o'qitish jarayoniga ham taalluqlidir. Bu sohani o'rganishdagi ko'plab qonun-qoidalar, til materiali doirasidagi o'zgarishlar juda sekinlik bilan amalga oshgan bo'lsa-da, tilning sotsiolingvistik jihatlari, uni amalda qo'llash jarayonining yangicha, zamonaviy talablarga muvofiqlashtirilishi hayot talabidir. Bu, dastavval, til materialidan nutq jarayonida samarali foydalanish, nutq madaniyatini yanada takomillashtirish borasida me'yoriy muammolarni ma'lum darajada hal qilish va

¹Iskandarova Sh. Leksik-semantik sistema talqinlari. // O'zbek tili va adabiyoti. 2009-yil 2-son, 43-b.

²Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlangan nutq, 1997-yil 29-avgust. – Toshkent, 1997, 4-bet.

bunga oid bilimlardan talabalarni, jamoatchilikni xabardor qilib borish bilan bog`liq.

Prezidentimiz I.A. Karimov ta`biri bilan aytganda, “Agar biz O`zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug` kelajagini ulug`lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo`lsak, avvalambor buyuk yozuvchilarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak”³.

Ma`lumki, so`z badiiy tasvirning asosiy vositasi, obraz yaratishning, uni individuallashtirishning muhim omillaridan biri sanaladi. So`zsiz, ekspressivlikni ifodalovchi fonetik, morfologik, sintaktik vositalar ishtirokisiz obyektiv borliqdagi narsa predmetlarni, hodisalarni aniq tasvirlash mumkin emas. Azal-azaldan so`zlar vositasida ana shunday leksik-semantik guruhlar va turli xil ma`no ko`chish yo`llari hosil qilingan. Buning natijasi o`laroq asar badiiy saviyasi oshgan va o`z badiiy qimmatini saqlagan holda avlodlargacha yetib kelgan.

Hozirgi o`zbek adabiyoti, xususan, romanchiligi jamiyatimizning ma`naviy-ma`rifiy yuksalishiga ham sezilarli ta`sir ko`rsatmoqda, chunki adabiyotning quroli tabiiyki, so`zdir. So`z orqali go`zal tasvir yaratildimi, demak, bunday tilning lug`at boyligi kengdir. Til biror bir millat uchun xos bo`ladi, shu millatning tarixan qadimiyligi bilan ham baholanadi. O`zbek tili ana shunday boy millatning tilidir. Prezidentimiz I.A. Karimov o`zining “O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” asarida shunday yozadi: “O`z ona tilini bilmagan odam o`zining shajarasini, o`zining ildizini bilmaydigan kelajagi yo`q odam, kishi tilini bilmaydigan odam uning dilini ham bilmaydi”<sup>4</sup>. Shuningdek, prezidentimizning “Biz ma`naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o`zlikni anglashning o`sisidan, xalqning ma`naviy sarchashmalariga, uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz”<sup>5</sup> deb aytgan so`zlari bejizga emas, albatta.

Ko`p asrlar davomida shakllangan ma`naviy-ma`rifiy qadriyatlarimizga tayangan, bugungi kunda yangi istiqlol mafkurasi bilan oziqlantirilayotgan, shu

³Karimov I. Yuksak ma`naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma`naviyat, 2008. 139-140-bet.

⁴Karimov I. A. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. Toshkent. “Ma`naviyat”. 2011-y, 70-bet.

⁵ Karimov I. A. O`zbekiston XXI asr bo`sag`asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.oshkent. 1997.137-bet.

bilan birga, bizni umumbashariy ulug` ma'naviyat sari yetaklayotgan milliy ongimiz, shuurimiz va dunyoqarashimiz ona tilimizning amaliy jihatlarini zamon talablariga mos ravishda o`rganish barchamiz uchun muhimdir.

**Muammoning o`rganilganlik darajasi.** O`zbek tilshunosligida Oybek ijodining til xususiyatlari o`rganilgan tadqiqotlar mavjud (Q.Samadov, H. Nizomxonov, A. Sabirdinov, S. Boymirzayeva va boshqalar), ammo yozuvchi asarlari matni lingvostilistik tahlili borasida hali bajarilishi lozim bo`lgan ishlar ko`lami keng, uning o`zbek adabiy tili taraqqiyotiga qo`shgan hissasi va ijodiy uslubini, o`ziga xos belgilarini aniqlash masalasi o`z dolzarbligini yo`qotgani yo`q.

Keyingi yillarda o`zbek tilshunosligida badiiy adabiyot tili muammolari bilan shug`ullanishning jiddiy tus olganligi til birliklarining adabiy asarda namoyon bo`lish xususiyatlarini tobora oydin tasavvur qilishimizga, ularning badiiy adabiyot shakllanishi va badiiy estetik ta'sirini kengroq doirada tushunishimizga sababchi bo`lmoqda. Lingvistik birliklarning adabiy yoxud poetik asardagi lisoniy va badiiy-estetik vazifasini tahlil qilish hali ko`plab tadqiqotlarning yaratilishini taqozo qiladi. Har qanday yozuvchining ijodiy kamolotga erishuvi, eng avvalo, uning milliy g`oya va qadriyatlarga sadoqati hamda ularni o`z ijodida lingvopoetik jihatidan nechog`lik mahorat bilan yuksak darajada ifodalay olish imkoniyatiga bog`liq.

O`zbek tilshunosligida badiiy asar tili, so`zlarning o`z va ko`chma ma'nolari, ma'no ko`chish usullari, shuningdek, so`zlarning shakl va mazmun munosabati, faol va nafaol qatlam, bu hodisalarning nazariy asoslari masalalarini o`rganishga jiddiy kirishilgan. Ana shuni nazarda tutib, mazkur ilmiy ishda Oybek qalamiga mansub asarlarda qo`llangan leksik birliklar tekshirilib, ularning ekspressivlik xususiyatlari yoritilganki, ish bu sohada shu paytgacha maydonga kelgan tadqiqotlarni ma'lum ma'noda to`ldiradi, degan fikrdamiz. Yuqorida qayd qilinganlar ushbu magistrlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

**Ishning ilmiy – tadqiqot ishlari, rejalari bilan bog`liqligi.** Tadqiqot Samarqand davlat universiteti Filologiya fakulteti "O`zbek tilshunosligi" kafedrasining ilmiy tadqiqotlar rejasi asosida amalga oshirildi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Soʻz estetik imkoniyatlarining matnda voqelanishi, ushbu voqelanishni vujudga keltiruvchi turli uslubiy vositalaridan va Oybekning “Quyosh qoraymas” asari mazkur tadqiqotning obyekti sifatida foydalanish, til imkoniyatlarining oʻziga xos xususiyatlari yoritiladi.

Oybekning soʻz qoʻllash mahoratining “Quyosh qoraymas” romani matnida namoyon boʻlishi esa tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Til taraqqiyotiday muntazam jarayonda lisoniy birliklarning shakliy tomoniga daxldor turli oʻzgarishlar, tilning fonetik qurilishi va tizimida yuz beradigan oʻzgarishlar qanchalik doimiy va muqarrar boʻlsa, til birligining maʼno-mazmun tomonida voqelanadigan oʻzgarishlar undan ham muqarrardir.

Oʻzbek tilshunosligida maʼno muammosi, soʻzning semantik tuzilishi, unda kechadigan jarayonlar, xilma-xil oʻzgarishlar, soʻzning estetik va maʼnoviy imkoniyatlari, ularning matnda ifodalanishi, umuman semantik struktura taraqqiyot qonunlari batafsil tadqiq etilgan.

Bu oʻrinda zahmatkash va zukko tilshunos prof. M.Mirtojiyevning bir qancha ishlari qatorida “Oʻzbek tili semasiologiyasi” nomli monografiyasini alohida tilga olish lozim. ⁶ Bunda olim oʻzbek tilida leksik maʼno, leksik maʼnoning semantik tarkibi, leksik maʼno taraqqiyot yoʻllari (metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik kabi) va semantikaning boshqa bir qator muammolarini jiddiy tadqiq etgan hamda oʻzining orginal ilmiy-nazariy xulosalari bilan umumlashtirgan.

Shuni aytish joizki, soʻz estetik imkoniyatlarini matnda voqelanishida bu monografiyadagi ilmiy tushuncha va fikrlar semantik maydonning kengayishi uchun ham xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi.

Maʼlumki, badiiy asarlarni lingvopoetik jihatdan oʻrganish badiiy nutqning nasriy matnlarda ifodalash mumkin boʻlmagan tomonlarini ham aniqlashga yordam beradi. Mazkur magistrlik ishida badiiy matnda leksik birliklarning ekspressiv taʼsirchanlikni ifodalash imkoniyatlarini oʻrganish, soʻz estetik imkoniyatlarining badiiy matn mazmunini shakllantirishdagi oʻrnini belgilash masalalariga diqqat qaratilgan.

⁶Mirtojiyev M.M. Oʻzbek tili semasiologiyasi. – Toshkent. Mumtoz soʻz. 2010. B-6.

Shunday ekan, soʻzning estetik imkoniyat doirasi ham kengayib boradi va yangidan –yangi mazmun kashf etadi. Bu imkoniyatlarni matnda voqelanish jarayonini Oybekning “Quyosh qoraymas” romani misolida kuzatish maqsad qilib olindi.

Tadqiqotning vazifalari. Ilmiy tadqiqotning asosiy maqsadi – Oybek ijodida soʻz estetik imkoniyatlari lingvopoetik jihatdan tahlil qilinib, ijodkorning badiiy tasvir vositalardan, shuningdek, oʻzbek tilining boy imkoniyatlaridan foydalanishdagi mahoratini va bu orqali adibning oʻzbek adabiy tili rivojida oʻrnini belgilashdagi hissasini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot maqsadini amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

- Oybek asarlarini lingvopoetik jihatdan oʻrganishning dolzarbligini belgilash;
- Oybek asarlarini fonetik-fonografik xususiyatlarini lingvopoetika bilan aloqadorlikda tahlil etish;
- Oybek asarlarini morfologik jihatdan tahlil qilish;
- Ulardagi sintaktik xususiyatlarni aniqlash va tahlil qilish;
- Oybek asarlarini leksik-semantik jihatdan oʻrganish;
- Oybek asarlarida barqaror birikmalarning joylashish tartibiga eʼtibor qaratish;
- Maqollar va iboralarning qoʻllanish ahamiyatiga eʼtibor qaratish;
- Oybek asarlarini poetik tasviriy vositalarning stilistik jihatdan qoʻllanish oʻrnini belgilash;
- Oybek asarlarida badiiy tasvir vositalaridan foydalanishdagi oʻziga xosliklarni aniqlash.
- Oybek ijodiga bir nazar

Mavzu boʻyicha qisqacha adabiyotlar tahlili. Badiiy asarlar lingvostilistik tahliliga bagʻishlab yaratilgan qator tadqiqotlar (A. Shomaqsudov, N. Mahmudov, Q. Samadov, A. Sabirdinov, Yo. Tojiyev, E.Qilichev, M. Yoʻldoshev kabilar)ning izlanishlari alohida diqqatga sazovordir. Shuningdek, keyingi yillarda

yozuvchining til birliklaridan, ayniqsa, leksik birliklardan foydalanish mahoratini o`rganishga bag`ishlangan bir qancha ishlar yuzaga keldi. Masalan, tilshunos L.Abdullayeva⁷, E.Qilichev⁸, B.Umarqulov⁹, N. Mahmudov¹⁰, R.Suvonova¹¹, S.Boymirzayevalar¹² o`z monografiya va kitoblarida o`zbek badiiy adabiyoti tilining leksik stilistikasi muammolari, badiiy tasvirda ishtirok etadigan leksik vositalar, ularning ifoda imkoniyatlari, so`zning estetik imkoniyatlari kabi masalalarni tadqiq etganlar<sup>13</sup>. Badiiy matnning leksik xususiyatlarini o`rganishga bag`ishlangan tadqiqotlar salmoqli darajada bo`lsa ham, adabiyotimiz tarixiga kiradigan barcha asarlarni qamrab olgan deya olmaymiz. Biz mana shularni hisobga olgan holda leksik birliklarning fonetik-fonografik, leksik-semantik, grammatik xususiyatlarini, shakl va mazmun nomunosibligini ifodalay olish imkoniyatlarini, so`z estetik imkoniyatlarining matnda voqelanishini tadqiq etib o`rganishini lozim deb topdik va bu masalani Oybekning “Quyosh qoraymas” asari misolida ko`rib chiqdik.

Tadqiqotning metodologiyasi. Tadqiqotning metodologik asosini muhtaram prezidentimiz I.A.Karimovning asarlari, so`zlagan nutq materiallari, shuningdek, falsafaning shakl-mazmun, sabab-oqibat, umumiylik-xususiylik kategoriyalari tashkil qiladi. Asosan, lingvopoetik, uslubiy tahlil hamda tasniflash usullaridan keng foydalanildi. Shu bilan bir qatorda misollar kartoteka qilindi va mazmuniy izchillikda yoritildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Badiiy nutq emotsionalligi lingvistik omillar bilan ta`minlanadi. Lingvistik omillar turli tabiatli bo`lib, tilning barcha sathlarini qamrab oladi. Oybek ijodi badiiy nutqining o`ziga xosligini ko`rsatishda leksik vositalarning ekspressiv stilistik xususiyatlari o`rganilar ekan, buning natijasida quyidagi ilmiy yangiliklar qo`lga kiritildi:

⁷Абдуллаева Л. Лексическая стилистика узбекской художественной литературы. – Тошкент: Фан, 1979.

⁸ Qilichev E. Matnning lingvistik tahlili. Buxoro, 2000- yil

⁹ Умарқулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: Фан, 1990.

¹⁰Mahmudov N. Tilimizning tilla sandig'i.– Toshkent. 2012

¹¹Suvonova R. O`zbek tilida metonimiya.Monagrafiya. – Toshkent. 2004.

¹²Boymirzayeva S. Matn mazmunida temporallik semantikasi. – Toshkent. 2009.

¹³Yo`ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent, 2007 yil. 8-bet.

- o`zbek adabiyotining o`ziga xos nutq egasi bo`lgan Oybek badiiy ijodidagi badiiy asar tilini shakllantiruvchi leksik vositalar tahlil etildi;
- individual uslub xususiyatlari ochib berildi;
- Oybek asarlaridagi fonetik-fonografik hodisalarning asar mazmunidagi o`ziga xos xususiyatlari ochib berildi;
- morfologik va sintaktik jihatdan Oybek asarlarining til xususiyatlari o`rganildi;
- leksik-semantik birliklarning Oybek asarlaridagi o`ziga xos jihatlari;
- o`xshatish, takror, ibora, maqollar va metaforalarning so`z estetik imkoniyatlarini ta`minlashdagi, shuningdek, badiiy matn tilining ekspressivligini oshirishdagi o`rni va mavqei Oybek ijodi misolida ochib berildi;
- turli xil leksik vositalarning Oybek asarlari nutqidagi stilistik imkoniyatlari badiiy uslubni, qahramonlar nutqini individuallashtirishdagi o`rni kuzatildi;
- barqaror birikmalarning Oybek ijodida stilistik qo`llanish imkoniga ko`ra o`rni belgilandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy-amaliy ahamiyati. Lingvopoetik tadqiqotlar tilimiz tabiatiga doir bir qator yangiliklar qilish, Oybek asarlarining o`ziga xos jihatlari haqida xulosalar chiqarish imkoniyatini beradi. Shuningdek, adabiy tilimizning yanada boyishiga, ravnaq topishiga xizmat qiladi. Adib ijodida keng qo`llanilgan fonetik, grammatik, leksik vositalar, shuningdek, badiiy tasvir vositalaridan foydalanish natijasida ijodkor mahoratini yoritib berish bo`yicha amalga oshirilgan tahlillarning mavjudligi va ularning ilmiy xulosalanganligi ilmiy qimmatini oshiradi. Ishda erishilgan ilmiy va amaliy natijalardan Oybek ijodini akademik litsey, kasb –hunar kollejlari hamda oliy o`quv yurtlarida o`rganish, seminar-treninglar, ma`ruza va muloqot-suhbat darslarini tashkil qilishda qo`shimcha material sifatida foydalanish mumkin.

**Natijalarning e`lon qilinganligi.** Dissertatsiyaning asosiy mazmuni muallif tomonidan e`lon qilingan uchta maqola va tezislarda o`z ifodasini topgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob va umumiy xulosalardan iborat bo'lib, ishning yakunida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati berilgan. Ishning umumiy hajmi 82 sahifani tashkil etadi.

I BOB.

MATN MAZMUNINI TASHKIL ETUVCHI OMILLAR VA AMALLAR.

1.1. Matn haqida umumiy tushuncha va ta'riflar.

«Matn» atamasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. O'zbek tilining izohli lug'atida matn so'zining arabchadan o'zlashganligi, eskirgan kitobiy so'z ekanligi va aynan tekst so'zi anglatgan ma'noga tengligiga ishora qilinadi. Ayni lug'atda tekst so'ziga quyidagicha ta'rif beriladi: Matn- yozilgan, ko'chirilgan yoki bosilgan ijodiy, ilmiy asar, nutq, hujjat va shu kabilar yoki ularning bir parchasi matn. 1.Maqolaning matni. 2.Musiqa asariga, masalan biror kuyga, opera, roman va shu kabilarga asos bo'lgan she'r, so'z. 3.Poligrafiyada yirik shriftlardan birining nomi.

Demak, matn deyilganda faqatgina yozma shakl inobatga olinishi kerak. Yangi tahrirdagi izohli lug'atda ham ayni shu ta'kid saqlangan: matn [arabcha - yelka; nutqning yozuvdagi ifodasi, matn]. Yozuvda yoki bosma holda shakllantirilgan mualliflik asari yoki hujjat.

Avvalo, shuni aytish lozimki, kishilar o'rtasidagi aloqa kommunikatsiya matnlar vositasida amalga oshar ekan, matnni faqat yozma shakl bilan chegaralash shakllanib ulgurgan mavjud matn nazariyasi qoidalariga zid bo'lishi turgan gap. Axir, kishilar o'rtasidagi har qanday kommunikatsiya faqat va faqat yozma shaklda amalga oshishini tasavvur etib bo'lmaydi. Sintaksisning asosiy birligi gap ekanligi hamisha e'tirof etilgan, matn yoki uning birliklari gapdan yirik, oliy sintaktik-kommunikativ birliklar hisoblanishi lozimligi bugungi matn tilshunosligining asosiy qoidalaridan biriga aylanib ulgurdi. Shunday ekan, faqat yozuvda aks etgan gapnigina gap deb, og'zaki nutqdagi gapni gap bo'lolmaydi deyish to'g'ri bo'lmasligini isbotlab o'tirishning hojati yo'q, albatta. Agar faqat yozuvda ifodalangan yaxlit nutqnigina matn deyiladigan bo'lsa, mantiq gapni ham faqat yozuvdagisiginigina tan olish kerakligini taqozo etadi. Ammo buning mumkin emasligi tabiiy. To'g'ri, og'zaki nutqning so'zlangan paytidagina mavjud ekanligini, yozma nutqning esa zamon nuqtai nazaridan chegaralanmaganligini hech kim inkor etmaydi, ammo bu og'zaki nutqni eslash, xotirada saqlash,

umuman, uni yoki uning muayyan parchalarini tiklash ilojsiz degani emas. Yaxlit og'zaki nutq faqat yozma shaklga olingandagina matn yuzaga keladi tarzidagi hukm daryoda oqib turgan suv suv emas, balki bu “modda” faqat shishaga solingandagina suv paydo bo'ladi degandek bir gapdir.

Bugungi kun tilshunosligida matn tilning alohida yirik birligi (supersintaktik butunlik) va matn tilshunosligi deb atalayotgan sohaning asosiy obyekti sifatida talqin qilinadi. Matnni tadqiq etishda uni so'z birikmasi va gapdan farqlash lozimligi, matnning ham o'z kategoriyasi va qonuniyatlari borligi aytiladi. Tilshunos M.X.Hakimov bu haqda shunday yozadi: «Matn so'zining lug'aviy ma'nosida birikish, bog'lanish tushunchalarining borligi, shuning uchun matn tarkibi o'zaro qaysidir bog'lovchilar yordamida birikishini o'rganish «Matn tilshunosligi» sohasining asosiy muammolaridan biri bo'lib qoldi». Mazkur ishda muallif «matn» atamasini «nutq», «kontekst» kabi boshqa lingvistik atamalardan farqlash lozimligini ta'kidlaydi. Bundan tashqari dunyo tilshunosligida matn muammolari tadqiqiga bag'ishlangan ishlarning ko'pchiligida “diskurs” termini ham bot-bot qo'llanadi.

Bu termin matn lingvistikasi bilan bir qatorda adabiyotshunoslik, sotsiologiya, siyosatshunoslik, falsafa, mantiq, psixologiya kabi fan sohalarida keng ishlatilib kelinayotgan bo'lsa-da, matn lingvistikasining o'zida ham yagona, ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan talqini, ma'nosi yo'q, xilma-xil farqli tushunchalar ifodasi uchun istifoda qilinadi. Dastlab “diskurs” va “matn” terminlari ayni bir tushuncha uchun qo'llangan bo'lsa, keyinroq “matn” yozma kommunikatsiyaga nisbatan, “diskurs” esa og'zaki kommunikatsiyaga nisbatan ishlatilgan. Bu so'zning ma'nosi fransuzcha discours - “nutq”, “so'zlash” demakdir.

Shunday ekan matn til sintaktik sathining oliy darajadagi birligi bo'lib, gaplar ketma-ketligining bog'lanishlilik asosida og'zaki va yozma shaklda yuzaga keladigan struktural, semantik va kommunikativ jihatdan yaxlit bir butunligidir.

Har qanday butunlik kabi matn ham uni tarkib toptiruvchi unsurlardan, muayyan birliklardan iborat bo'ladi. Tilshunoslikda qanday birliklar matnni

shakllantirishi yoki matnni bo'laklarga ajratganda qanday birliklar aynan matn birligi deb hisoblanishi borasida ancha-muncha munozaralar mavjud. Bir qarashda, matn birliklarini belgilash u qadar ham qiyin ish emasdek tuyuladi. Ammo aslida unday emas, shuning uchun ham matn lingvistikasi tadqiqotchilari orasida juda ko'p va farqli qarashlar mavjud. Masalan, I.R.Galperin gapni matn birligi bo'la olmasligini ta'kidlaydi. Uningcha, bir necha gapni o'zida birlashtiradigan yirik butunlik - frazadan katta butunlik matnning birligi bo'la oladi. Frazadan katta butunlikning tarkibiy qismi bo'lgan gap bir paytning o'zida matnning ham birligi bo'la olmasligini aytadi. Ko'pchilik tilshunoslar esa gapni matnning asosiy shakllantiruvchi unsuri ekanligini ta'kidlashadi. Aslida ham matnning mazmuniy tarkibini, bu mazmunning obyektiv olam bilan nisbatlanishini, demakki, to'g'ri anglanishini gapsiz tasavvur etish mushkul. Shunga ko'ra gapning matn sistemasidagi o'rnini, ayniqsa, uning matn hosil qilish imkoniyatini aslo inkor etib bo'lmaydi. Lingvistik adabiyotlarda gap, murakkab sintaktik butunlik va abzas matn birligi sifatida talqin qilinadi. Gap va murakkab sintaktik butunlikni matnning asosiy birliklari deyish mumkin, lekin abzasni mazkur birliklar qatoriga kiritib bo'lmaydi. Chunki, abzas, avvalo, yozma matngagina xos bo'lgan hodisa. Tilshunos A.N.Gvozdev abzasni tinish belgilari qatoriga kiritadi. "Abzas yangi fikrlar qatorining ko'rsatkichi sifatida xizmat qiladi. Bir necha gap yoki hatto bir gapni alohida abzas sifatida ajratish bu gaplarga muayyan salmoq baxsh etadi, bunday ajratish muallif tomonidan o'z maqsadiga bog'liq tarzda amalga oshiriladi». Matn lingvistikasining yirik tadqiqotchilaridan biri I.R.Galperin ham abzas xuddi tinish belgilari kabi matndagi mantiqiy va emotsional jihatlarni alohida ta'kidlab ko'rsatish uchun xizmat qiladigan vosita, kompozitsion-grafik usul ekanligini asoslagan. Lekin abzaslar yozma nutq uchun, ayniqsa, badiiy matn uchun nihoyatda zarur vosita hisoblanadi. Abzaslar bir so'zdan, bir gapdan yoki bir necha gapdan tuzilishi mumkin. Abzasning tashkillanishini yozuvchilar o'zlarining badiiy niyatiga ko'ra mutlaqo ixtiyoriy tarzda belgilashadi. Bir necha gapdan iborat abzaslar, odatda, 3 bosqichdan iborat bo'ladi: 1-bosqich xabarning boshlanishi (abzasda aytilmoqchi bo'lgan mavzu haqidagi dastlabki, qisqacha xabar), 2-bosqich

xabarning to'ldirilishi (dastlabki xabar to'ldiriladi, izohlanadi, sharhlanadi) 3-bosqich esa xabarning xulosalanishi (xabar yakunlanadi, natija aytiladi) hisoblanadi. Shuningdek, abzasdagi oldingi xabar bilan keyingi xabarni bog'lovchi vositalar (bog'lovchi vositalar abzasni o'zidan oldingi yoki keyingi abzasga bog'laydi) ham o'sha butunlikning ajralmas qismlaridan hisoblanadi.

Matnlar tipologiyasida axborotni uzatish kanali alohida o'rin tutadi. Ana shunga ko'ra matnlarning og'zaki matn va yozma matn tiplarini farqlash lozim. Kommunikatsiya jarayonida berilayotgan axborotning hajmi ham matnlar tipologiyasi uchun yana bir asos bo'ladi. Har qanday matnni unda ifodalangan axborotning hajm belgisiga ko'ra minimal matn va maksimal matn tiplariga ajratish mumkin. Badiiy uslubda yozilgan matnda minimal matn deb biror mavzuni yoritishga bag'ishlangan qatralar, xalq donishmandligini ifodalaydigan maqol, matal va aforizmlar, miniatyuralar, hajviy asarlar, nomalar, she'r va she'riy parchalar, umuman, kichik mavzuni qamrab oluvchi bir necha gaplardan iborat butunlik tushuniladi. Matnning ichki tomonini mazmun yaxlitligi, tashqi tomonini esa turli shakldagi bog'lamalar, sintaktik vositalar birlashtirib turadi. *Masalan: Talantsiz yozuvchi tovuqqa o'xshaydi. Yong'oqdek tuxum tug'adi-da, qaqog'lab olamni buzadi! (O'.Hoshimov). Yoki: Sevgi nima? Insoniyat paydo bo'libdiki, shu savol ustida bosh qotiradi. Ammo javob topolmaydi. Agar inson sevgining barcha sir-asrorlarini bilganida edi, uning modeli -qolipini yaratgan bo'lardi. Sevgi hech qanday qolipga sig'magani uchun ham sirli va abadiydir (O'.Hoshimov).*

Minimal matn deb atash mumkin bo'lgan ikkita parchani keltirdik. Tarkiblanish jihatidan birinchisi ikkita gapdan tuzilgan, Mazmunni birlashtirishga xizmat qiladigan sarlavha berilmagan. Bu vazifa tovuq va u bilan bog'liq so'zlarga yuklatilgan (tovuq-tuxum-qaqog'lamoq). Iste'dodsiz yozuvchi birinchi gapda tovuqqa o'xshatilmoqda. Ikkinchi gap esa bu o'xshatishni torroq izohlash (bundan keyingi yoki sababini ko'rsatish uchun keltirilgan. Ya'ni, iste'dodsiz yozuvchi tovuqqa o'xshatildi, ammo tovuqning qaysi sifat va xususiyatiga? Muallif munosabati ikkinchi gapda tugal ifodasini topgan. Matn butunligini ta'minlashda tovuq-tuxum-qaqog'lamoq so'zlari mazmuniy o'q vazifasini bajarmoqda. Keyingi

kichik hajmli matnni oladigan bo'lsak, ushbu matnning ichki mazmuni savol shaklidagi sarlavha orqali oshkor qilingan. Matn to'rtta gapdan tashkil topgan. Butunlikni ta'minlayotgan vositalar sirasiga izchil va tugal ohang, ammo bog'lovchisi, agar bog'lovchisi va matnning mazmuniy o'qini tashkil qiluvchi sevgi so'zi kiradi. Demak, masala savol shaklida qo'yilyapti va unga matn orqali javob berilyapti. Ya'ni, Sevgi nima? Sevgi - sirli va abadiy tushuncha. Ayrim mutaxassislar bittagina gap ham minimal matn tushunchasiga teng kelishi mumkin degan fikrni ilgari surishgan. Tilshunos N.Turniyozov «matn bir so'z bilan, bir necha so'z bilan, bir necha gap bilan, bir necha abzas bilan va bir necha bob bilan ifodalanishi ham mumkin» ligini aytadi. Lekin olim shuni ham ta'kidlaydiki, «matn lingvistikasi muammolarini bir so'zli, birikma yoki biror sodda gap bilan ifodalangan matnlar asosida o'rganish maqsadga muvofiq emas. Chunki bunday matnlarga tayanib til sistemasi unsurlarining nutqqa ko'chirilishiga oid masalalar tavsifini mukammal holatda berib bo'lmaydi». Tilshunos M.Hakimov ham bitta gap matn tushunchasiga teng kelishi mumkinligini ta'kidlaydi: «Masalan: Bahor... Bu jumlaning kichik matn hisoblash mumkinmi? Bizningcha, to'la ma'noda kichik matn deb hisoblash mumkin. Chunki tugal bir ohang bilan aytilgan Bahor jumlasida «tabiatning jonlanishi», «hammayoqning ko'm-ko'k tusga kirishi», «atrof- muhitning go'zal tusga burkanishi kabi yashirin mazmun mavjuddir. Shuning uchun kichik matnda bir tugal mazmuniy fikr o'z ifodasini topadi. Lekin bu tipdagi ko'rinishlarni tom ma'noda matn deb atash mumkin emas. Chunki matn struktural jihatdan gapdan yirik sintaktik butunlik. Demak, gaplardan tashkil topadi. Yashirin mazmun sifatida havola qilinayotgan ma'nolar so'zning ma'no strukturasi bilan bog'liq. Mazkur gap o'zidan keyin keladigan izohlovchi yoki kengaytiruvchi gaplar bilan bir butunlik hosil qilgandagina matn deyish to'g'ri bo'ladi. Agar yashirin mazmunga qarab xulosa chiqaradigan bo'lsak, istalgan so'zni matn deyishimiz mumkin bo'ladi. Masalan, ona degan so'zni oladigan bo'lsak, bu so'zning ham moddiylashmagan yashirin ma'nolari mavjud va ular mazkur so'zni talaffuz qilishimiz bilanoq, ko'z oldimizda u yoki bu tarzda namoyon bo'ladi.

Maksimal matn deyilganda keng ko'lamdagi voqealarni yoritish ehtiyoji bilan yuzaga kelgan butunlik nazarda tutiladi. Badiiy uslubda hikoya, qissa, roman, epopeya kabi yirik hajmli asarlar maksimal matn hisoblanadi. Bunday matn tarkibida epigraf, so'zboshi (muqaddima), so'ng so'z (epilog) kabi yordamchi qismlar ham ishtirok etishi mumkin. Ular asar mazmuni va g'oyasiga, shuningdek, mavzuning tanlanishi va yoritilishiga oid ayrim masalalarga qo'shimcha izoh, sharh bo'lib keladi. Maksimal matn tashqi jihatdan turlicha shakllangan bo'ladi. Masalan, Pirimqul Qodirovning «Humoyun va Akbar» tarixiy romanini ko'zdan kechiradigan bo'lsak, mazkur asar ikki mustaqil qismga ajratiladi. Har ikki qism alohida nomlanadi (Humoyun. Akbar). Qismlar 9-10 tadan bo'limlarga bo'linadi va har bir bo'lim voqea bo'lib o'tayotgan joy hamda gap kim yoki nima haqida ketayotganligiga qarab nomlab boriladi (Masalan: 1. Agra. Hamida bonu arosatda... 2. Ganga. Ko'rgilik. v.h.). Romanning umumiy hajmi 30 bosma taboq.

Shuningdek, matn lingvistikasiga oid ishlarda ma'lum bir matn tarkibidagi murakkab sintaktik butunlikka nisbatan mikromatn, yaxlit matnga nisbatan esa makromatn atamasi qo'llanadi. Lekin mikromatn va makromatn tushunchalari matn tiplari bo'lolmaydi. Chunki ular butun-bo'lak munosabatini tashkil etadi. Masalan, A.Qahhorning "Bemor" hikoyasi butun holicha makromatn (garchi hajman kichik - minimal matn bo'lsa ham), undagi murakkab sintaktik butunliklar mikromatndir.

Matnlarni tiplashtirishda ularning lisoniy strukturasi ham nazarda tutilishi kerak. Shunga ko'ra, tipologik jihatdan turg'un strukturali matnlar (ma'lumotnoma, dalolatnoma, annotatsiya, patent kabilar) va erkin strukturali matnlar (maqola, hikoya, she'r, roman kabilar)ni farqlash mumkin.

Matnlar mazmuni va ifoda maqsadiga ko'ra ham farqli tiplarga birlashadi. Bunda berilmoqchi bo'lgan axborotning xarakteri va uni ifodalashdan ko'zlangan maqsad asosiy o'lchov vazifasini bajaradi. Bu nuqtai nazardan matnlarni nutqiy muloqotning asosiy shakllariga uyg'un ravishda hikoya, tasviriy, muhokama matnlariga ajratish tilshunoslikda an'anaga kirgan.

Matn tiplarini belgilashda yana bir omil - asos nutqning funksional uslublaridir. Matn funksional uslubiy mohiyatiga ko'ra ilmiy matn (tezis, maqola,

ma'ruza, taqrizlar), badiiy matn (nasriy va nazmiy asarlar), rasmiy matn (ma'lumotnoma, qaror, buyruq, tavsifnoma, tavsiyanomalar), ommabop matn (maqola, suhbat, tabrik va xitob nutqi matnlari) kabi tarmoqlarga bo'linadi. Matn maqsad-mohiyatida tilning ikki muhim vazifasidan qaysi birining - kommunikativ vazifaningmi? yoki estetik vazifaningmi? - yetakchilik qilishiga asoslangan holda matnlarning ikki oppozitiv tiplarini farqlash zarur, yani badiiy matn va nobadiiy matn. Asosiy maqsad-mohiyatida kommunikativ vazifa yetakchilik qilgan matnni nobadiiy matn deb, asosiy maqsad mohiyatida estetik vazifa yetakchilik qilgan matnni esa badiiy matn deyish ma'qul. Muloqot paytida, gapirayotganda yoki yozayotganda har doim yangidan matn yaratmaymiz. Ehtiyojimizga ko'ra turli matn tiplaridan foydalanamiz. Ba'zan boshimizdan o'tgan yoki o'zimiz guvoh bo'lgan voqealarni kimgadir aytib beramiz. Tinglovchiga notanish bo'lgan biror kishi yoki joyni batafsil tasvirlab berishga harakat qilamiz. Ba'zan fikrimizni turli dalillar yordamida isbotlashga, izohlashga ehtiyoj sezamiz. Yoxud kimgadir pand-nasihat qilamiz. Uni turli hayotiy voqealar vositasida tarbiyalash yoki aytilganlardan xulosa chiqarishini istaymiz. Muloqot maqsadimiz ba'zan qandaydir xabarni tinglovchiga yetkazishga qaratilgan bo'ladi. Ba'zan nimanidir so'rashga ehtiyoj sezamiz.

Shu bilan birga biror ishni qanday bajarish kerakligi haqida tavsiyalar beramiz yoki biror ishni qilmaslik haqida buyruq beramiz. Maqsadimizga erishish uchun turli ko'rsatma, ta'qiq va xitob jumllalaridan foydalanamiz. Insonlar o'rtasidagi muloqot maqsadi va mazmuni shular bilangina chegaralanib qolmaydi. Inson hissiyotlarini, tuyg'ularini, hayajonlarini, azob va qayg'ularini ifodalash, shu orqali tinglovchi yoki kitobxonni ta'sirlantirishni istaydi. Ana shunday hollarda ba'zan mubolag'a ba'zan o'xshatish - qiyoslash kabi tasviriyy vositalardan foydalanamiz. Shu asosda badiiy matn ifoda mazmuniga ko'ra ham tiplarga ajratiladi: hikoya mazmunli matn, tasviriyy matn, izoh mazmunli matn, didaktik matn, xabar-darak mazmunli matn, so'roq mazmunli matn, buyruq-istak mazmunli matn, hissiy ifoda mazmunli matn. Unutmaslik kerakki, biror bir badiiy matnda sanab o'tilgan matn rejalarining hammasi yoki ayrimlari ishtirok etgan bo'lishi

mumkin. Yoxud butun boshli asar yuqorida zikr etilgan matn tiplaridan faqatgina bittasi asosida shakllangan bo'lishi ham mumkin.

Matn - ma'lum bir mazmunga ega bo'lgan va kishi ongida voqea hodisani singdirib beruvchi, uning tafakkurini ishlatuvchi va tashkil etuvchi omillar jarayonida hosil bo'luvchi hodisadir. Ular hajmi jihatidan ikki xil, mikro va makro matnlarga bo'linadi.

Matn – lingvistik tahlil obyekti. Bunga matn muammosiga bag'ishlangan tadqiqotlarning soni tinimsiz ravishda o'sib borayotganligi guvohlik beradi. Lekin shunga qaramasdan, ushbu hodisaning tabiatiga oid masalalar borasida bildirilayotgan fikrlarda mushtaraklik sezilmaydi, ushbu hodisaga berilayotgan ta'riflar ham turlicha ekanligini kuzatamiz.

Matn tilshunosligining taraqqiyoti – tadrijiy jarayon. Uning asosiy manbalari til tizimi talqiniga kommunikativ va vazifaviy nuqtai nazardan yondashuvni targ'ib etuvchi yo'nalishlardir. “Tizimning faollashuvi”, ya'ni uning kommunikativ vazifa bajarishiga bo'lgan e'tiborning kuchayishi natijasida matn tom ma'noda kommunikativ (muloqot birligi) vazifasini o'taydigan hodisa sifatida lingvistik tahlil obyektiga aylandi.

Matn va uni tushunish yagona bir faoliyat – nutqiy tafakkur faoliyatining ikki qirrasidir. Bu faoliyat jarayonida lisoniy iboralarni tanlash, baholash va ma'lum maqsad ifodasi uchun qo'llash bilan bog'liq bo'lgan qoidalar nutqiy faoliyatga bir xilda ta'sir o'tkazadi.

Matn lingvistikasining u yoki bu sohasi bilan shug'ullanish, matnning biror bir xususiyatini tadqiq etishga kirishish uchun dastlab matn hodisasining mohiyatini, uning lingvistik tabiatini bilish lozim bo'ladi. Faqat shundan so'nggina matnning tuzilishi, uning strukturaviy, mazmuniy belgilari, inson kommunikativ faoliyatida tutgan o'rni, bajaradigan ijtimoiy-semiologik vazifalarini o'rganish mumkin bo'ladi. Lisoniy kategoriya maqomini olish uchun matnning qanday xususiyatlarga ega bo'lishi lozimligi haqidagi savol matn tilshunosligi shakllanishining ilk davrlaridayoq kun tartibiga qo'yilgan edi. Har qanday nutqiy tuzilmaning matn sifatida e'tirof etilishi uchun u ma'lum me'yordagi barqaror, tub

xususiyatlarga ega bo'lishi zarur va bu xususiyatlar matn mohiyatini belgilab beradi. Matnning mohiyati bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va ularni o'tkinchi, favqulodda vaziyatlarda yuzaga keladiganlaridan farqlash juda qiyin muammo. Bu muammo yechimini izlash va matnning kategorial belgilari borasida qo'yiladigan savollarga javob topish yo'lidagi urinishlarning nihoyasi yo'qdek go'yo.

Tushunchalarning turli-tumanligi, fikrlarning har xilligi, so'zsiz, tadqiqotchining "matn" tushunchasini qaysi lingvistik hodisaga nisbatan qo'llanishi va ushbu hodisaning qanday nazariy g'oya asosida talqin qilinishiga bog'liq. Biror bir hodisa talqiniga turlicha nuqtai nazardan yondashish esa bevosita berilayotgan ta'riflarning har xil ko'rinish olishiga sabab bo'ladi.

Tilshunos olimlar gap hodisasiga berilgan ta'riflarning nihoyatda turli-tumanligidan qanchalik bezovta bo'lishgan bo'lsalar matnning ta'rfi ham xuddi shunday bezovtalikni keltirib chiqarishi turgan gap. "Matn" so'zini tilga olayotgan tilshunoslarning qariyb barchasi ushbu tushunchaga u yoki bu yo'sinda ta'rif berishga harakat qilishmoqda.

Matn- ko'p jihatli, murakkab tuzilishga ega bo'lgan qurilma, shuning uchun ham uni tavsiflashda unga xos bo'lgan semiotik, kommunikativ, strukturaviy, pragmatik, kognitiv, nominativ xususiyatlarni e'tiborga olish talab qilinadi. Ammo har bir tadqiqotchi, odatda bevosita o'zini qiziqtirayotgan jihatlar bilangina qiziqib, berilayotgan umumiy ta'rifning mukammal, batafsilligini ta'minlashga urinmaydi. Natijada, har bir tadqiqotchi matn hodisasiga nisbatan o'ziga xos nuqtai nazari shakllanadi va rejalashtirilayotgan tadqiqot shu nuqtai nazarga bo'ysundiriladi.

Shu sabab matn hodisasiga berilayotgan ta'riflarning birortasiga ham qat'iy e'tiroz bildirish qiyin, chunki ularning har birida matn hodisasining u yoki bu jihatlarini yoritishga harakat qilingan, demak har kuzatishda tadqiq qilinayotgan obyektning ma'lum bir qirralari o'z ifodasini topadi.

Matn chegarasini belgilash masalasi uning ta'rifini berish borasidagi juda muhim talabdir. Nimani matn hisoblash lozim: to'liq bir asarnimi yoki uning har bir bobinimi, dialogik tuzilmanimi yoki uning qismlarinimi? Albatta, matn

chegarasini uning turlarini sanash vositasida ko'rsatish mumkin (masalan, roman, risola, hikoya, maqola, xat, dialog va hokazo), lekin har qanday chegaralash amallarini bajarishda yaxlitlik tarkibidagi qismlarning o'zaro bog'liqligi semantik va strukturaviy jihatdan bir xilda ta'minlangan bo'lishi shart. Demak, struktur-semantik bog'liqlik matn chegarasini belgilovchi me'yor sifatida qabul qilinishi mumkin.

“Matn o'ziga xos ichki va tashqi strukturaga ega bo'lgan hodisadir. Uning ichki strukturasi ko'p tarkibli va ko'p bosqichli tuzilishga ega bo'lib, u fonetik, leksik, morfologik, sintaktik sathlarning o'zaro munosabatlari asosida shakllanadi”¹⁴.

Til va nutq birliklarini “keskin farqlash” va “Sossyur tomonidan kun tartibiga qo'yilgan til va nutq dixotomiyasi prinsiplariga izchil amal qilish” tarafdori bo'lgan X.Xayrullayev nutqni uch pog'onali tizim ko'rinishida tasavvur qiladi va gap (eng kichik birlik), murakkab sintaktik qurilma, (mikromatn), abzas (makromatn) larni ushbu tizimning birliklari sifatida ajratishni ma'qul ko'radi.¹⁵

Matn tushunchasini material jihatdan tayin etish va ta'riflash hamma zamonlarda olimlarning e'tiborida bo'lib kelganligiga qaramay, hamon bahs-u munozaralarga sabab bo'ladi, ilgari surilgan turli fikrlar goh birovlar tomonidan e'tirof etilsa, goh jiddiy e'tirozlarni tug'dirib keladi. Ayrim tilshunoslar faqat yozma shakldagi yaxlit nutq yoki nutq parchasini matn deb hisoblaydilar. Masalan, L.M. Loseva “matn” tushunchasini aniqlashda barcha matnlar uchun xos bo'lgan belgilardan kelib chiqish lozimligini aytadi va bu belgilarning birinchisi sifatida uning yozma shaklda bo'lishini alohida qayd etadi¹⁶. Matnni lingvistik tadqiqot obyekti sifatida rus tilshunosligida birinchilardan bo'lib batafsil o'rganganlardan biri I.R.Galperin “matnning ontologik va funksional belgilarini namoyon etadigan yetakchi jihatlar” dan biri sifatida “yozma hujjat tarzida reallashadigan

¹⁴ Turniyozov N., Yo'ldoshev B. Matn tilshunosligi. Ma'ruzalar matni. – Samarqand, 2006. – B. 36.

¹⁵ Xayrullayev X. Nutq sathlarining pog'onali munosabati. – Samarqand. SamDCHTI, 2008. – B.3.

¹⁶ Лосева Л. Как строится текстю. – М. 1980. С-4.

tugallanganlik” ni alohida ta’kidlab ko’rsatadi. Uningcha, matn yozuvda qayd etilgan nutqiy asardir¹⁷.

Matn ko’p o’lchovidir, chunki uning istalgan bo’lagiga ko’p marta qaytish mumkin. Agar nutq harakat, jarayon bo’lsa, matn ikkiyoqlama tabiatga ega, ya’ni u ham tinch holatda ham harakatda bo’la oladi. Agar nutqning zamonda mavjudligi shu nutqni talaffuz vaqti bilan chegaralangan bo’lsa, matnning mavjudligi amaliy jihatdan hech narsa bilan chegaralanmagan.

O’zbek tilshunosligida ham yuqoridagiga o’xshash mulohazalar yo’q emas. Masalan, M.Hakimov yozadi: “Nutq – bu so’zlovchining nutqiy jarayoni bilan aloqador bo’lgan hodisa sifatida ifoda etilsa, matn ham ana shu nutqiy hodisaning yozilgan parchasidir... “Nutq” o’zining yozma shaklida “matn” atamasi teng keladi... Har qanday nutqning yozma shakli matn tushunchasi mohiyatini ifoda etadi... tekst – og’zaki nutq , kontekstga nisbatan stabillashgan, ma’lum qoida, qonuniyatlar va adabiy til me’yorlari asosida shakllangan yozma nutq... matn bir vaqtning o’zida emas, balki bir necha asr avvalgi va keyingi shaxslar o’rtasidagi aloqa munosabatini yuzaga chiqaruvchi vositadir ”¹⁸.

Bunday anchayin keskin fikrlar munozarali bo’lib, kishilar o’rtasidagi har qanday kommunikatsiya faqat va faqat yozma shaklda amalga oshishini tasavvur etib bo’lmaydi. Og’zaki nutqning bir yo’nalishliligi, yozma nutq matnning ko’p yo’nalishliligi, og’zaki nutqning “qaytishsizligi”, yozma nutqning esa “qaytishliligi”, ya’ni uning istalgan bo’lagiga har qachon qaytish mumkinligi haqidagi da’vo-dalil ham asosli emas. To’g’ri, og’zaki nutqning so’zlangan paytidagina mavjud ekanligini, yozma nutqning esa zamon nuqtai nazaridan chegaralanmaganligini hech kim inkor etmaydi, ammo bu og’zaki nutqni eslash, xotirada saqlash, umuman, uni yoki uning muayyan parchalarini tiklash ilojsiz degani emas.

Matn bu zamonaviy texnika bilan avloddan avlodga o’tib kelaveradi.

¹⁷Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. М. 1981. С.18.

¹⁸Hakimov M.X. O’zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari. N.D. Toshkent, 1993. 17, 18, 21-betlar.

Demak, matn haqida umumiy tushunchaga ega bo'ldik. Endi matn mazmuni hodisasi xususida fikr yuritamiz. Matn mazmunini to'liq yoritish uchun matn qismlarining o'zaro birikishi, yaxlitligini hosil qiluvchi omillarni sanab o'tishning o'zi yetarli emas. Matn mazmunining shakllanishi uni yaratuvchi shaxsning kognitiv va kommunikativ qobiliyati bilan bog'liq. Xuddi shuningdek, retsipient ham ushbu qobiliyatga ega bo'lishi kerak. Bu ikki tomonning kognitiv-kommunikativ qobiliyati keskin farq qilgan taqdirda mazmun noto'g'ri idrok etiladi. Shunday qilib, matn mazmunining har tomonlama, shu jumladan, kognitiv-kommunikativ yo'nalish doirasida tahlil qilinishi faqat nazariy ahamiyatga ega bo'lmasdan, balki lisoniy faoliyat uchun ham muhimdir.

Axborotni o'zlashtirish jarayonida inson turli ko'rinishdagi aqliy harakat amallarini bajaradi va bulardan eng asosiylari umumiyashtirish hamda xususiylashtirishdir. So'zsiz, bu aqliy amallarning har ikkalasi ham **matn mazmunini tushunish** uchun zamin yaratadi. Umuman, so'z va undan yuqori pog'onadagi birliklarning inson ongida o'rnashib qolgan qomusiy hamda lisoniy ma'no bilan bog'liq tomonlarini inobatga olish tushunish faoliyatining psixolingvistik tahlili va ushbu faoliyat tabiatini bilish uchun muhimdir. Shu sababli bo'lsa kerakki, psixolingvistik tadqiqotlarda umumiy ma'noni ifodalovchi «tayanch so'zlar»ni ajratish va ularning nutqiy matn mazmunining shakllanishidagi rolini o'rganishga alohida ahamiyat qaratib kelinmoqda.

Tayanch so'zlar va tushunchalar inson ongida «umumlashgan ma'no» xususiyatiga ega bo'lgan ma'no strukturalari sifatida namoyon bo'ladi. Nutq va tafakkurning o'zaro munosabati muammosiga e'tibor qaratgan A.N.Sokolovning ta'rifi, ushbu strukturalar botiniy nutqning asosiy birliklari bo'lib, ular «tafakkur jarayonida axborotning mantiqiy idrokini ta'minlovchi vositalardir». Bundan tashqari, tayanch tushunchalar mazmunni umumlashtirish qobiliyatiga ega bo'lish bilan bir qatorda, uni bo'laklarga ajratish, xususan, belgilarni farqlash imkonini yarata olishini ham unutmaslik kerak.

Demak, matn mazmunining yaxlitligini, uning alohida parchalarga bo'linib ketmasligini ta'minlovchi manba - mazmunda konseptual (muallif rejasi)

axborotning mavjudligi hisoblanadi. Bundan tashqari “tushunish”, “ta’kidlash” kabi tushunchalar ham matn mazmunida asosiy omillardan biri sanaladi.

Ko‘rinadiki, ushbu kognitiv amalning negizida matn mazmunini tushunish omillarni ta’kidlash maqsadi turadi. Matn mazmunini tashkil etuvchi ushbu omillar matnni to‘g‘ri tahlil qilish va uni tushunishda hamda o‘quvchi ongiga matn mazmunini singdirishda, lisoniy birliklarni to‘g‘ri ifodalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

1.2. BADIY MATNNING LINGVISTIK MOHIYATI VA UNDA SO‘Z ESTETIK IMKONIYATLARI

Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, o‘zida turli uslub ko‘rinishlarini muallifning badiiy niyatiga ko‘ra erkin jamlay oladigan, tinglovchi yoki o‘quvchiga estetik zavq berish, ta’sir etish xususiyatiga ega bo‘lgan g‘oyat murakkab butunlik hisoblanadi. Badiiy matnda boshqa uslub matnlarida bo‘lganidek qat’iy mantiq, soddalik, tushunarlilik, normativlik kabi qonuniyatlarga to‘la-to‘kis amal qilinavermaydi. Unda badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalaniladi. Ta’sirchanlik birinchi rejaga ko‘tariladi. Ohangdor, jozibador birliklar ko‘p qo‘llaniladi. Tasvirlanayotgan voqelikda uyg‘un bir musiqa, ichki bir garmoniya sezilib turadi. Insonni ruhan to‘lqinlantirish, yig‘latish, kuldirish, xayolot olamiga yetaklash, o‘yga cho‘mdirish, estetik tafakkurini shakllantirish, voqea-hodisalarga teran, boshqacha nazar bilan boqishga o‘rgatish kabi ko‘plab imkoniyatlarni o‘zida mujassam qilgan bo‘ladi.

Badiiy asar tiliga bag‘ishlangan ishlarda tilning ayni “ekspressiv vazifasi” termini bilan bir qatorda “tilning poetik vazifasi”, “tilning badiiy vazifasi”, “tilning stilistik vazifasi”, “tilning ritorik vazifasi”, “tilning estetik vazifasi” kabi atamalar ham qo‘llanadi. Tilning “poetik vazifa”si tushunchasi va termini dastlab rus- amerika filologi Yakobsonning “Lingvistika va poetika” asarida ishlatilgan va u badiiy adabiyotda nimani ifodalash emas, balki qanday ifodalash muhim degan tezisdan kelib chiqilgan holda ta’riflangan (“Badiiy adabiyot poetik vazifadagi

tildir”). O‘tgan asr boshlarida yashagan atoqli rus filologi G.O.Vinokur “poetik vazifa” termini bilan bir qatorda tilning “badiiy vazifa”si terminini ham qo‘llagan.

Ma’lumki, til o‘zining bir vazifasini o‘ziga xos shakllarda ifoda etar ekan, boshqa vazifalari bilan ajralgan holda reallashadi degan gap unchalik to‘g‘ri emas.

Bu o‘rinda N.Mahmudovning til bajaradigan vazifalar haqidagi quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir: “Til fikr ifodalash, dunyoni bilish, bilim-tajribalarni to‘plash, saqlash va keyingi avlodlarga yetkazish, milliy-ruhiy munosabatlarni aks ettirish, go‘zallik kategoriyalarini voqelantirish kabi bir qancha vazifalarni bajaradi. Tilni faqat va faqat kishilar o‘rtasidagi aloqa vositasi sifatida talqin etish insonning tabiiy tilini, bu murakkab va muxtasham hodisani aniq bir milliy qiyofa yoki milliy-ruhiy zamindan mosuvo bo‘lgan sun’iy tilga (masalan, esperanto kabi) tenglashtirishdan, yo‘l harakatini tartibga solish maqsadida yaratilgan shartli “til”ga baravarlashtirishdan boshqa narsa emas... Holbuki, odamlar til vositasida tuyg‘u va kechinmalari, quvonch va qayg‘ulari, hayrat va hayronliklari, qalbdagi huzurlari kabi xilma-xil sezgilarini ham ifodalaydilarki, bular hamisha ham sof kommunikativ maqsadlarni ko‘zda tutmaydi... Estetik vazifa tilning asosiy kommunikativ vazifasini uning imkoniyatlarini boyitadi. Til va nutq ayni shu estetik vazifasi bilan ifodalilik, ta’sir quvvatini namoyon etadi.

Tilning bu ikki muhim vazifasi ana shunday bir-biri bilan bog‘liq va ayni paytda bir-biridan farq qiladigan vazifalardir. Bizning bu vazifalarni tushunishimiz va farqlashimiz ham matnni tushunishimiz uchun asosiy omillardan hisoblanadi.

Demak, tilning estetik vazifasi butun o‘ziga xosligi va murakkabligi bilan, albatta, kommunikativ vazifaga ham asoslangan, uni badiiyat manfaatlariga to‘laligicha xizmat qildirgan holda bevosita badiiy matnda namoyon bo‘ladi, Umumxalq tilidagi barcha sath birliklari badiiy matnda u yoki bu darajada estetik qimmat kasb etadi.

Matnda, odatda, faktlar, kechayotgan voqealar, ularning sodir bo‘layotgan davri, makoni, ushbu voqealarning qanday kechayotganligi, muallif izohlari, fikri kabilar bayon qilinadi. Bularning barchasi faktual axborotni, asar fabulasini tashkil qiladi. Ushbu axborot ikki xil vazifani bajaradi: bir tomondan u matnni hosil qiladi,

uni hayotiyashtiradi, bayon qilinayotgan fikrni mazmunga aylantiradi, ikkinchi tomondan esa, bayon qilinayotgan fikrni «qorong'ilashtiradi», unga niqob kiygizadi, mazmunni idrok etishni qiyinlashtiradi, uni turlicha talqin qilishga sharoit va imkon tug'diradi. Badiiy matnda matbuot xabari yoki ilmiy maqoladan farqli ravishda faktual axborotning bevosita ifodalanishi, mavjud bo'lishi qiyin masala. Demak, badiiy matnda axborot muallifning o'quvchiga yetkazishni mo'ljallayotgan fikri bilan mos ravishda shakllanadi. Uning vositasida muallif o'z fikrini boshqalarga to'g'ridan-to'g'ri bayon qilmasdan, balki personajlar kechinmalarini yoritish orqali ma'lum qiladi, muallifning bunday fikr bayon qilishi esa so'z estetik imkoniyatlarini yuzaga keltiradi.

Ma'lumki, o'zbek tili ifoda imkoniyatlariga benihoya boy va beqiyos darajada go'zaldir.

Mumtoz va bugungi adabiy asarlarni o'qir ekanmiz, xalq og'zaki ijodi namunalari bilan tanishar ekanmiz turli so'z o'yinlarini, o'tkir va nozik askiyalarni tinglar ekanmiz, tilimizning turfa tovlanishlaridan, go'zalligidan astoydil lazzatlanamiz, behad zavqlanamiz.

Ma'lumki, umuman go'zallik tushunchasi estetik kategoriya hisoblanadi. Bu ma'noda tilning go'zalligi masalasi til estetikasining tub mohiyatidir. Til estetikasini o'rganishga bo'lgan qiziqish bundan ancha ilgari bir qator rus va chet el yozuvchilari, tilshunos va adabiyotshunos olimlari qarashlarida paydo bo'lgan.

Til estetikasi bilan birinchilardan bo'lib, atroflicha shug'ullangan olimlardan biri italyan filosofi va siyosiy arbobi Bensdetto Kroche (1866—1952)dir. U 1902 yilda e'lon qilingan kitobida nazariy jihatdan tilshunoslikni estetika bilan, «go'zallik haqidagi fan» bilan aynan tenglashtiradi. B. Kroche buning qanchalik g'ayritabiiy bo'lishiga qaramasdan, estetika kategoriyalari qanchalik individual bo'lsa, lingvistik kategoriyalar ham shunchalik individualdir deb hisoblaydi.

Keyinchalik B. Kroche g'oyalarini nemis filologi Karl Fossler davom ettirishga va rivojlantirishga harakat qildi. Ana shu yillarda shvetsariyalik tilshunos Sharl Balli o'zining «Fransuz stilistikasi» deb atalgan kitobida tilning affektiv (ekspressiv) va estetik funksiyalarini keskin farqlab ko'rsatib beradi. Uning

fikricha, tilning ana shu estetik tomonini estetika va adabiyot nazariyasi o'rganishi kerak. Yirik fransuz tilshunosi Antuan Meye 1925- yilda yozgan bir taqrizida til estetikasini chuqur o'rganish umumiy til nazariyasi uchun mutloq ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlaydi. Til estetikasi, avvalo, tildagi «estetiklik» tushunchasi nimani o'z ichiga oladi, qanday xarakterlanadi degan savol tabiiy va asoslidir. Bu o'rinda yirik rus tilshunosi R. L. Budagovning quyidagi fikri juda xarakterlidir: «Tilga va nutqqa nisbatan «estetik»likni so'zlovchi yoki yozuvchining faqat nimani gapirayotganligiga va nima haqida yozayotganligigagina emas, balki qanday gapirayotganligiga va qanday yozayotganligiga ham ongli munosabati sifatida tushunmoq kerak». Ko'pincha, til estetikasi haqida gap ketganda, faqat muayyan yozuvchining tili atrofida fikr yuritiladi. Estetikani faqat badiiy asarlar tiligagina xos, undan tashqarida til estetikasi haqida gapirish mumkin emas deb qarash noto'g'ridir. «Chunki til estetikasining asosi nutqning sifatiga, qandayligiga suyanadi. Jonli so'zlashuvda ham, ko'pincha, fikrning qanday ifodalanayotganligiga e'tibor beriladi. Ana shu e'tibor bilanoq til o'zining kommunikativ funksiyasi bilan birgalikda estetik funksiyasini ham namoyon qiladi. Demak, nafaqat badiiy asarda, balki undan tashqarida ham til o'zining estetik funksiyasi bilan ishtirok etishi mumkin»¹⁹.

Yana shuni ham aytish kerakki, agar til faqat kommunikativ funksiyasining o'zi bilangina yashaganda edi, u benihoya qashshoqlashgan bo'lardi. Til estetikasining muhim jihati so'zlarning ifoda imkoniyatlari masalasidir, ya'ni **so'z estetikasidir**. So'zlar o'zlarining qo'llanishi va bundagi estetik imkoniyatlariga ko'ra juda ham murakkabdir. Yirik adabiyotshunos N. K. Gey o'zining «So'z san'ati» nomli kitobida juda o'rinli ta'kidlaganiday, bir so'z ilmiy risolada ham, tashviqiy maqolada ham, lirik she'rda ham va jonli so'zlashuvda ham qo'llanishi mumkin, lekin ularning har birida so'z o'ziga xos alohida ma'no nozikligiga ega bo'ladi. Shuning uchun ham so'zlar ranglardan yoki haykaltaroshlikdagi turli formalardan beqiyos boy va mazmunliroqdir. So'zlardagi ana shunday mazmun va

¹⁹ Abdurahmonov X, Mahmudov N. So'z estetikasi. -Toshkent. O'zbekiston. «Fan» 1981. B-5.

ma'no tovlanishlarini chuqur his qilgan rus yozuvchisi M. Prishvin so'zlarni «sehrli va maftunkor raqqosalarga» o'xshatadi. Adabiyotshunos va adib Yu. Tinyanov esa so'zlarni o'z rangini nutqda tez-tez o'zgartirib turuvchilardir deb ataydi. So'zlardagi bunday xususiyat ularning juda katta estetik imkoniyatlarga ega ekanliklarini ko'rsatadi. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, estetik imkoniyat turli so'z guruhlarida turlicha bo'ladi. Ayniqsa, sinonimlar, antonimlar, paronimlar, arxaizmlar, dialektal so'zlar, ko'p ma'noli so'zlar va shu kabilar muayyan estetik effekt yaratishda nisbatan kattaroq imkoniyatga ega. Ayni paytda so'zni o'ziga xos bo'lmagan boshqa biror nutq stilida qo'llaganda ham u o'ziga xos estetik qimmat kasb etadi. Shuning uchun ham, garchi boshqa bir qator so'z guruhlari ham sezilarli estetik imkoniyatga ega bo'lsa-da, bu borada asosan yuqoridagi so'z guruhlarning estetik tomonlari birmuncha umumiy tarzda bayon etiladi. Ko'rinadiki, so'zning estetik imkoniyatlari nafaqat badiiy matnda balki, jonli so'zlashuv nutqida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

I- BOB YUZASIDAN XULOSALAR

Matn mazmunini tashkil etuvchi omillar va amallar haqida keng mulohaza yuritdik va quyidagi xulosalarga keldik:

1. Kishilar o'rtasidagi aloqa kommunikatsiya matnlar vositasida amalga oshar ekan, matnni faqat yozma shakl bilan chegaralash shakllanib ulgurgan mavjud matn nazariyasi qoidalariga zid bo'lishi turgan gap. Axir, kishilar o'rtasidagi har qanday kommunikatsiya faqat va faqat yozma shaklda amalga oshishini tasavvur etib bo'lmaydi.
2. Bugungi kun tilshunosligida matn tilning alohida yirik birligi (supersintaktik butunlik) va matn tilshunosligi deb atalayotgan sohaning asosiy obyekti sifatida talqin qilinadi. Matnni tadqiq etishda uni so'z birikmasi va gapdan farqlash lozimligi, matnning ham o'z kategoriyasi va qonuniyatlari borligi aytiladi.
3. Matnlar tipologiyasida axborotni uzatish kanali alohida o'rin tutadi. Ana shunga ko'ra matnlarning og'zaki matn va yozma matn tiplarini farqlash

lozim. Kommunikatsiya jarayonida berilayotgan axborotning hajmi ham matnlar tipologiyasi uchun yana bir asos bo'ladi. Har qanday matnni unda ifodalangan axborotning hajm belgisiga ko'ra minimal matn va maksimal matn tiplariga ajratish mumkin.

4. Matn tilshunosligining taraqqiyoti – tadrijiy jarayon. Uning asosiy manbalari til tizimi talqiniga kommunikativ va vazifaviy nuqtai nazardan yondashuvni targ'ib etuvchi yo'nalishlardir. “Tizimning faollashuvi”, ya'ni uning kommunikativ vazifa bajarishiga bo'lgan e'tiborning kuchayishi natijasida matn tom ma'noda kommunikat (muloqot birligi) vazifasini o'taydigan hodisa sifatida lingvistik tahlil obyektiga aylangan.

II BOB.

OYBEKNING SO'Z QO'LLASH MAHORATI VA BADIY TASVIR VOSITALARI

2.1. OYBEK IJODI HAQIDA

Har bir san'atkor o'z badiiy yaratmalarida eng avvalo estetik qarashlarini, estetik g'oya va estetik idealini ilgari suradi. Shuning uchun san'atkor ijodini uning estetik qarashlari bilan bog'lab o'rganish obyektiv ilmiy xulosalar chiqarishga imkon beradi. Shu ma'noda Oybek estetik qarashlarini tekshirish uning ham ilmiy ham badiiy iste'dodini namoyon etishda foydali samaralar berishi mumkin.

O'zbek adabiyotining atoqli vakili Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek yirik nasr maydoniga ko'p asrlik tajriba va an'anaga ega bo'lgan she'riyat yo'lidan kirib keldi. Ilk romani "Qutlug' qon" nashr etilguncha o'quvchilar ommasiga shoir sifatida tanilgan Oybekning keyingi yillarda yaratilgan barcha nasriy asarlarida jumladan, "Quyosh qoraymas" romanida ham lirik turga xos ko'tarinkilik, yuksak shoirona kayfiyat, ehtirosli tuyg'ular to'liqligini yaqqol ko'zga tashlanadi. Oybek ijodining bu ustuvor xususiyati to'g'risida zamondoshi Hamid Olimjon shunday yozgan edi: "Oybek prozada shoir-u poeziyada prozaikdir. U eng mayda ikir-chikirlarini she'rda kuylay biladigan talantli shoirdir. U kishilar portreti, ko'z va qosh harakatlarini juda aniq tasvirlab beradi. Shu bilan uning prozasi lirik poeziya darajasiga ko'tarila oladi. Oybek kishining qalbiga kira oladi, yurakning nozik torlarini chertib o'tadi"²⁰. H. Olimjonning bu fikrlaridan ijodkor uslubiga xos quyidagi muhim fazilatlarni ajratib olish mumkin:

1. Oybek "eng mayda ikir-chikirlarni she'rda kuylay biladigan talantli shoir".
2. She'rda ham, nasrda ham "kishilar portreti, ko'z va qosh harakatlarini juda aniq tasvirlab beradi"gan mohir yozuvchi.
3. Prozani lirik poeziya darajasiga ko'tara oladigan novator.
4. "Oybek kishining qalbiga kira oladi" gan ruhshunos, "yurakning nozik torlarini chertib o'tadi" gan poetik tasvir ustasi.

²⁰Olimjon H. Mukammal asarlar to'plami. O'n tomlik. 6-tom. -Toshkent. Fan, 1982. 280-bet.

Yozuvchining butun ijodiga xos bo'lgan bu fazilatlar yirik nasriy asarlarida o'z aksini topgan.

Ulug' ajdodlarimiz kitobi «Avesto»da ta'kidlanishicha boshqalarga yaxshilikni ravo ko'rgan, yaxshi so'z aytgan va yaxshi amallar qilgan insonlargina mangulikka da'vo qilishi mumkin. Mana shu ma'noda ustoz va murabbiy Oybek ham mangulikka daxldordir deyish mumkin.

O'zining juda katta ko'lamda yaratgan badiiy asarlari, ilmiy tadqiqotlari, tarbiyalab voyaga yetkazgan farzandlari, juda murakkab bir davrda yashagan bo'lishiga qaramasdan, o'z xalqi va Vataniga, imoni va e'tiqodiga sodiq qolganligi uning ana shu mangulikka daxldorligidan dalolatdir.

Oybek qoldirgan badiiy meros g'oyatda ulkandir. Bu noyob meros 20 tomlik «Mukammal asarlar to'plami»dan joy olgan. Abdulla Qahhor ta'biri bilan aytganda, u 400 yilga teng keladigan 40 yillik faoliyatining bir lahzasini ham samarasiz o'tkazgan emas.

Asar yozish mas'uliyatini uning «Quyosh qoraymas» romani ustida olib borgan ishlarida ham kuzatamiz. Z.Saidnosirova «Oybegim mening» kitobining «Bektemir izidan» degan qismida adibning o'zbek jangchilari hayotidan asar yozish maqsadida frontga ketganini, urush dahshatini, u keltirgan vayronagarchiliklarni o'z ko'zi bilan ko'rganligini, taassurotlari esa she'r va xotiralardan iborat «Olovli yillar» she'riy to'plami va «Front bo'ylab» kundalik daftarida aks etganini qayd etgan va quyidagilarni yozgan: «Agar «Front bo'ylab» kundaligini varaklab chiqqan bo'lsangiz, uning bo'lajak qahramonlari bilan Moskva ostonalarida tanishganligi, ularning jangovar hayoti to'g'risida muayyan tasavvurga ega bo'lganligini bilasiz. Shu qahramonlar orasida «Quyosh qoraymas» romanidagi Bektemir obraziga prototip bo'lgan o'zbek jangchilari ham bo'lganligi shubhasiz. Ehtimol, Oybek Ikromjon Toshmatovdan ham Bektemir obrazi uchun nimanidir olgandir» .

«Navoiy» va «Quyosh qoraymas» romanlari bilan bog'liq ayrim detallarni eslashdan maqsad shuki, Oybek badiiy ijodga g'oyatda mas'uliyatli vazifa sifatida

qaragan. Ijod jarayonida uning o'ziga xos uslubining shakllanishiga sabab bo'lgan omillardan biri ham shu deb aytsak xato qilmaymiz.

Avvalambor shuni qayd etamizki, Oybekning tasvir uslubidagi batafsillik, har bir voqeani, detalni ipidan ignasigacha erinmasdan, barcha jihatlarini e'tibordan qochirmagan holda badiiy idrok etish va qog'ozga tushirish mahorati «Quyosh qoraymas»da ham o'z ifodasini topgan. Roman shu darajada tasviriy vositalarga boyki, kitobxon jang tasvirini butun tafsiloti va dahshati bilan tasavvur qiladi. Ayni paytda, bu tasavvurlar shunchaki oddiy tasavvur emas, balki badiiy mushohada mahsuli ekanligini, bu esa adibning badiiy tafakkur ko'lamining naqadar keng bo'lganligini his etib, kitobxonning hayratlanmasdan iloji bo'lmaydi. O'quvchi ham asar mazmunidan xabardor bo'ladi, ham badiiy ta'sir oladi. Bunday faktlar asarda g'oyatda ko'p. Fikrimizni tasdiqlash maqsadida undan ayrim epitet – badiiy aniqlovchilarni keltirib, diqqatimizni romandagi yana bir muhim masalaga qaratamiz. Misollar: *Bu ularni mujassam baloga, mujassam vahimaga aylantirardi* (Q.q. 19-b). *Tanklar ko'zdan g'oyib bo'lishi bilan ufqni yana qora qushlar galasi tutdi. Birpasda qora girdob kabi tepada aylandi* (Q.q. 20-b). *Uning ustida o'lim quyuni hukmron* (Q.q. 21-b). *Bir zumda qora qushlar Bektemirning tepasida charx ura boshladi* (Q.q. 23-b) va boshqalar.

E'tiborimizni qaratishimiz lozim bo'lgan bu muhim jihat ham, Oybek uslubidagi batafsillik bilan bog'likdir. Adib jang manzaralarini shu darajada aniq tasvir etadiki, kitobxon asardagi qahramonlar bilan bab-baravar, bir xil ruhiy holatga tushishi hech gap emas. Ayrim parchalar keltiramiz: *Yigitlar miltiqlarini paypaslab topib, yelkaga osdilar va ko'chaga otildilar. Tutun va olovga chulg'angan samoda yarimta oy, go'yo yuzi iztirobdan siynalanganday, mungli yiltirardi. Bombalar dahshatli sado bilan sho'ngir, portlar, yer silkinar, binolar qular, eshiklar, derazalar qanotlanganday sakrab uchar, oynalar qum kabi to'kilardi...* (Q.q. 33-b).

Ushbu parchani o'qir ekanmiz, beixtiyor buyuk Tolstoyning «Urush va

tanchlik» romanidagi ayrim jang manzaralari ko'z oldimizga keladi. Jumladan: *Polk bir qadam olg'a siljimasdan, bitta ham o'q uzmasdan yana soldatlarning uchdan birini yo'qotdi. Ro'parada, ayniqsa o'ng tomondan, buruqsib chiqayotgan tutun orasidan to'plar gumburlamoqda, oldindagi ochiq joyni chulg'ab olgan sehrli tutun orasidan to'p o'qlari bilan granatalar vizillab, chiyillab yog'ilmoqda edi. Ba'zan xuddi dam berayotganday to'p o'qlari va granatalar chorak soatgacha hech kimga ziyon yetkazmay, polk ustidan o'tib ketar, ba'zan esa, hatto bir minut ichida bir necha kishini safdan chiqarardi, o'liklarni tinmay tuproq ostidan tortib olishar, yaradorlarni ko'tarib ketishardi (287-b).*

«Quyosh qoraymas»da: *Jangchilar granatalar, yondiruvchi butilkalar bilan dushman tanklarini majaqladilar. Ular tevaraklarida quturgan ajalga tik qaradilar va o'zlarining muqaddas burchlarini vijdon bilan bajarib halok bo'ldilar. Lekin yiqilgan bir murdaning orqasidan, qo'lida granatasi bilan ikkinchi botir ro'y-rost ko'tarildi. Qon yondi, o'lik yondi, temir yondi... (Q.q. 53-b).*

«Urush va tinchlik»da: *Iztirob chekayotgan, charchagan va ba'zan hamma narsaga loqayd, kishini hayratlantiruvchi yuzlar, o'sha qon, o'sha soldatcha shnel, uzoqdan bo'lsa ham hanuz kishini vahimaga soladigan o'sha otishma sadosi eshitilmoqda; buning ustiga hamma yoq chang-to'zon, havo dim edi (331-b).*

«Quyosh qoraymas» da Bektemir bilan bog'liq tasvir: *Daraxtlar tepasida bulutli samo bo'zargach, Bektemir yumshoq loyga tizzagacha botishiga qaramay, kuchli, g'ayratli otday ildam jo'nadi. Yomg'ir endi asta, ezib savalardi... Okopda bag'rini balchiqqa qo'ydi. Balchiqdan chirik, noxush hid dimoqqa uradi. Qo'l loy, yuz loy, non loy. Qon loyga oqadi. O'lik emas, tirik ham loy titraydi (Q.q. 58-b).*

«Quyosh qoraymas»da tasviriyy vositalar: *Botirlarning g'azab toshida ushalgan tank hujumi bitar-bitmas, dushman yana hujumga o'tdi. Bombalar yerdan tuproq minoralarini ko'tardi. Biroq samolyotlar balodor yuklarini aniq tartib» ham «vazn» bilan ag'darib, yangi yuk uchun balandlashib jo'narkan, nogohon qandaydir qizil yulduzli samolyotlar o'qday uchib keldi... (Q.q.54-b).*

«Urush va tinchlik» da tasviriy vositalar: Soldatlar o‘q uzib turishar, to‘plarni o‘qlashar va o‘z ishlarini zo‘r qunt bilan bajarishardi (269-b). Yana to‘p o‘qi hushtak chalib kelib yerga tushdi-yu, portladi (289-b).

Ushbu ikki romandan olingan parchalarni taqqoslash bu ulkan adiblarning tasvir uslubi naqadar o‘xshashligi haqida mulohaza qilishga majbur qiladi. Yuqoridagi detallar Oybekning ulug‘ Tolstoy dahosidan ham bahramand bo‘lganligi, hatto ayrim o‘rinlarda badiiy mushohadada undan ham o‘zib ketganligini namoyish etib turadi.

O‘zbekiston xalq shoiri yurtdoshimiz Xurshid Davron xalqimiz Oybekni romanist sifatida ko‘proq sevsada, aslida u buyuk shoir edi, deydi. G‘oyatda topib aytilgan gap. Zero qalbi nafosat bilan, she‘riyat bilan to‘lgan ijodkorgina yuqoridagi kabi nasriy parchalarni yarata oladi. Shuning uchun ham uning aytgan har bir so‘zi, yozgan har bir asari badiiyatga qalbi oshno kishini sehrlovchi manba bo‘lib qolaveradi.

Oybek — shoir, yozuvchi, dramaturg, kinodramaturg; adabiyotshunos, tilshunos, iqtisodchi, faylasuf, tarixchi; maqolanavis, tarjimon, matnshunos, noshir. Ilmiy va adabiy muassasalarni uzoq yillar boshqargan jamoat arbobi. Xalk noibi sifatida fidoyilik bilan ulug‘ ishlarga qo‘l urib, ommaning mehrini qozongan siymo. Xa, Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek faoliyati o‘zbek madaniyati tarixi va taqdirida butun bir davrni tashkil etadi. Mana shuning uchun ham hali hech bir o‘zbek ijodkoriga nasib etmagan nashr Oybek xazinasiga muyassar ko‘rildi: 20 jildlik «Mukammal asarlar to‘plami» xalq mulkiga aylandi.

“Ha, Oybek — xalq farzandi. Uning keng qamrovli ijodiy davlati — xalq boyligi. She‘rlar, dostonlar, dramalar, hikoyalar, qissalar, romanlar, publitsistik asarlar; yo‘l xotiralari, tarjimalar, adabiy- tanqidiy maqolalar, ilmiy tadqiqotlar, ilmiy -asarlarning tanqidiy matnini tuzish va nashrga tayyorlash, ijtimoiy-falsafiy atamalarni takomillashtirish borasidagi lug‘at-maqolalar, chet el adabiyotidan

tuzilgan xrestomatiyalar — bularning har biri madaniyatimiz silsilasining o‘ziga xos tizmalaridir”²¹.

Badiiy asar tilida davr ruhining mujassamlashuvini kengroq anglamoq uchun Oybekning «Navoiy», «Qutlug‘ qon», «Quyosh qoraymas», «Oltin vodiyan shabadalar» romanlariga nazar tashlaylik. Bularning biri uzoq o‘tmish, ikkinchisi XX asr boshidagi voqealarni qamraydi. Uchinchisi urush davrini, keyingisi urushdan keyingi yillarni aks ettiradi. Bularda tilimizning o‘sha davr holati aks etishi tabiiy.

«Quyosh qoraymas» Ulug‘ Vatan urushi davrini qamraganligi uchun unda harbiy qurol-aslaha nomlari, jang jarayoniga oid atamalar salmoqli o‘rin tutadi. Urush, jang, jangchi, avtomat, pulemyot, tank, okop, granata, o‘q, mayor, general, qurol kabi so‘zlar haqiqatanam tilda davrning «xarakteristikasi, muhim mujassamligini dalillaydi .

Davr ruhini ifodalashda xalq tilining imkoniyati cheksizdir. Bu imkoniyatni, bu boylikni lug‘at varaqlash bilangina egallab bo‘lmaydi. Yozuvchi uchun jonli lug‘at hayotdir. Har bir so‘zning qadr-qimmatini iste‘mol jarayonida topiladi- Xoh tilda asrlar davomida o‘lchanib kelayotgan| so‘z bo‘lsin, xoh tilga endi kirib kelgan so‘z bo‘lsin, ularning tasvirdan o‘rin olishi ijodkorga yuklatilgan talab taqozosi bilan belgilanadi. Demak, badiiy asar qaddini tiklashda har bir so‘z teng huquqqa ega. Faqat qaysi so‘z qalamni o‘qlab, qahramonning g‘azab, shiddatini kurash maydoniga olib chiqishi va qalamdan quyilgan mehr nurlarini bir nuqtaga to‘plab, asar qalbini yoritishga salmoqli hissa qo‘shishi mumkin — buni davr, vaziyat, mavzu kabi omillar belgilaydi.

Oybek jumlada yetakchi mavqeni egallovchi, tasvirni ixchamlashtiruvchi bunday so‘zlarni topib qo‘llash bilan bir qatorda, ularga xalq tilidagidan o‘zgacharoq ma‘no ham yuklaydi. Adib bunda so‘zdagi imkoniyatni nazaridan qochirmaydi, uning hayot hodisasini qamrashi tasvir yo‘nalishiga qay darajada singib ketishi, tasvirni qanchalik oydinlashtirishini har doim diqqatida tutadi. Shu tufayli u ta’kidlagan so‘z ayni o‘rindagi nutqiy vositalarning yetakchi halqasiga

²¹ Самадов Қ. Ойбекнинг тил маҳорати. – Тошкент. 1981. – 154 б.

aylanadi, jumlagi mazmundorlik, tasvirga ixchamlik baxsh etadi, ammo «men bu yerda» deb yaltirab, bilinib qolmaydi. Ikkita soʻzga nazar solaylik:

«*Qishloqda qolgan bir hovuch aholi koʻchalarga toʻkilgan edi — bolalar, ayollar, chollar...*» («*Quyosh qoraymas*», 60- bet). Qoʻshinlarimiz qishloqni nemis-fashist bosqinchilaridan ozod etgach, «bir hovuch aholi» sevinchi ichiga sigʻmay, koʻchalarga chiqadi. Yozuvchi bu holatni «toʻkilgan» soʻzi bilan tavsiflaydi. Odatda bu soʻz tilimizda biror suyuqlikning idishdan toʻkilishini maʼno va qoʻllanish jihatdan betaraf tarzda anglatadi. Baʼzan takabbur magʻrur kishilarning qilmishi boshiga yetishiga nisbat berilib, «toshgan edi, toʻkildi» yoki «toshibdi, toʻkiladi» tarzida qoʻllanib, muayyan munosabatni bildiradi. Ammo, bu oʻrinda «toʻkilgan» soʻzi boshqa holatni qamraganligi koʻrinib turibdi. U dastlabki maʼnosiga borib tutashsa-da, undan farq qiladi: bundagi toʻkilish kishini achintiradi, bu toʻkilish keltirib chiqargan sabab va vaziyat (nemis bosqinchilari va urush) kitobxonni nafratlantiradi. Demak, adib tasvirida bu soʻz uslubiy betaraflikdan xalos etilib, «toshishning toʻkilishi»dagiga nisbatan qarama-qarshi kayfiyatni yuzaga keltirgan.

Soʻzlarni takror ishlatish har doim nutqni bezayvermaydi. Ammo meʼyorni bilib ishlatilganda, takror fikrni loʻnda va ixcham ifodalash, urgʻuli holatlarni taʼkidlash vositasiga aylanadi. Oybek bundan yuksak mahorat bilan foydalanadi.

Fikrimizni oydinlashtirish uchun yana ikki dalilga eʼtibor beraylik.

Yozuvchi jang kechayotgan sharoitni tasvirlar ekan, takror vositasida manzarani toʻliq gavdalantirishga erishadi: «*Qoʻl loy, yuz loy, non loy. Qon loyga oqadi. Oʻlik emas, tirik ham loy tishlaydi*» («*Quyosh qoraymas*», 56-bet). Parchada «loy» soʻzining takrori holatni toʻliq aks ettirish bilan birga, sharoitning naqadar qiyinligini alohida boʻrttirib taʼkidlaydi. Bu esa jangchilarimizning shunday ogʻir vaziyatda Vatan ozodligi va xalqimizning baxt-saodati uchun qahramonliklar koʻrsatayotganligini ifodalashga xizmat etadi.

Yozuvchi baʼzan soʻzlar takroridan jangchimizning jasoratini zoʻr qoniqish bilan ifodalashga imkon topadi: Bektemir «dushmanning burqsib yonayotgan ogʻir tanki orqasida fritsning naq roʻbaroʻsidan chiqdi. Frits kutmagan edi, u bir zumgina

qotib, ko‘zlarini chaqchaytirdi-da, boshini majaqlashni mo‘ljallab, avtomatini ikki qo‘lda qisib baland ko‘tardi. *Bektemir bo‘g‘ilib, qutirib ketdi: yo o‘l, yo o‘ldir! Ikkilanish — ham o‘lim, ham nomardlik!.. Bektemir burgutday sapchib dushmanning qorniga nayza urdi, zarb bilan urdi... Nemis muknasi bilan yiqildi...*» (Q.q. 38-bet.).

Anglashilib turibdiki, vaziyat keskin: hayot bilan o‘lim yuzlashmoqda. Ana shunday mushkul ahvolda jangchimizning g‘alabaga erishuvini uqtirish uchun «nayza urdi, zarb bilan urdi» deb takrorlash g‘oyatda tabiiy, o‘rinli chiqqan. Shuning uchun bunda kitobxon ham o‘zining quvonch tuyg‘usining mujassamlashganini ko‘radi.

Yozuvchi voqelikdagi barcha hodisalarning mohiyatini jiddiy talqindan o‘tkazishi tufayli iboralarda ham keng ma‘noni bera olgan. Misol sifatida "Ajal o‘pib o‘tdi" iborasini olaylik. Iboraning ko‘rinishida qandaydir g‘ayritabiiylik borday. Lekin romanga tasvirlangan voqea taraqqiyotidagi vaziyatni, qahramonlar intilishini anglatishda bu ibora katta ahamiyat kasb etgan. Vaziyat keskin; Vatan taqdiri uchun, xalq taqdiri uchun bosqinchilarga qarshi jiddiy jang borayotir. Asqar polvonning peshonasini o‘q yalab o‘tgan. Bektemir so‘rasa, Asqar "ajal o‘pib o‘tdi" deb javob beradi. Demak, bu, eng avvalo, tasvirda yangi atama, yangi obrazli ibora sifatida xarakterlidir. Ayniqsa, vaziyatning g‘oyatda jiddiyligi jarayonida qahramonning o‘zini qanday tutayotganligini, butun xatti-harakatini anglatish bu iboraga o‘zgachalik baxsh etgan: qahramon ajal olovi quchog‘ida turishiga qaramasdan, o‘limni pisand qilmaydi. Xalqining baxt-saodatini saqlab qolishni, Vatanning pokiza tuprog‘idan iflos qadam tajovuzkorni surib tashlashni o‘ylaydi. Demak, adib bu ibora zamirida o‘zbek askarining shiddatkorligini, shaxsiy hayotidan xalq hayotini ustun qo‘yganini va haqiqiy ijod yaratishga erishganligini ko‘ramiz. Bu, shubhasiz, qalamning voqelikdagi muhim alomatlarni nishonga ola bilishi samarasidir.

Oybek xalqimiz tarixidagi buyuk davrlarni qalamga olar ekan, tilning o‘sha davrdagi holatini aks ettirishi tabiiy. Yozuvchining bu boradagi san‘ati shundaki, u xalq tili qatlamlari va yozma yodgorliklarni jiddiy tadqiq etib, qalamga olingan

davrni ifodalashda haqqoniylikni yuzaga keltiradi, Tarixan haqqoniylikni ifodalashning muhim omillaridan biri shundaki, yozuvchi o'zi yashab turgan davrdan uzilmagan holda, tarixni o'z qiyofasida mujassamlashtirmasdan, balki o'zini tarix quchog'ida, o'sha voqealar girdobida qaynagan holda ko'rsin. Oybek mana shunday jasur san'atkor bo'lganligi tufayli besh yuz yillik masofani qalb va qalam, tafakkur va shuur yo'li bilan bosib o'tib, buyuk mutafakkir siymosini yarata bildi. XV asr hayotini yorqin ifodalay oldi, hozir eskirgan yoki kam qo'llanadigan, ammo o'sha vaqtda faol ishlatilgan so'zlarni topib, ularga ruh baxsh etib, tarixni oydinlashtiruvchi muhim vositaga aylantira oldi.

2.2. “QUYOSH QORAYMAS” ROMANIDA BADIY TASVIR VOSITALARINING QO'LLANISH XUSUSIYATLARI

Ma'lumki, badiiy asar tilining ta'sirchan bo'lishi til birliklarining to'g'ri tanlanishi, matn mazmuniga mos kelishi va gapda yozuvchi ko'zlagan maqsadni amalga oshirishda muayyan uslubiy vazifani bajarishiga bog'liq. Yozuvchi til birliklaridan foydalanishda asar mavzusidan kelib chiqib, o'zi tasvirlayotgan shaxsning xarakter xususiyati, harakat-holatini aniq ifodalaydigan, kitobxon ko'z o'ngida aniq gavdalantiradigan so'z va iboralarni qo'llashga intiladi. Badiiy asarda matn ruhiga mos keluvchi til birliklarining qo'llanishi asar tilining jozibador, ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi. “Quyosh qoraymas” romanida XX asr o'rtalaridagi voqea-hodisalar qalamga olinadi. Mavzu talabiga ko'ra tasvirlanayotgan davr va personajlar xarakterini ochib berishga xizmat qiluvchi ifoda tasvir vositalari tanlab olinadi. Bu esa badiiy uslubning nasriy janri oldiga qo'yiladigan talablardan biri hisoblanadi.

Biz bilamizki, o'zbek tilining badiiy tasvir vositalari deb ataladigan ulkan bir xazinasini mavjud. Ular badiiy uslub jilolarining turli qirralarini ko'rsata oladigan va shu orqali ona tilimizning naqadar boy, nafis hamda go'zal ekanligini namoyish etadigan bitmas-tuganmas imkoniyatlar konidir.

“Badiiy adabiyot tilida uslubiy vazifani bajarishga xizmat qiluvchi tilning ifoda tasvir vositalari ham badiiy uslubning boshqa funksional uslublar orasidagi mavqeini belgilovchi eng muhim alomatlardan biri sanaladi. Chunki til vositalarining majoziy, ya’ni ko’chma ma’nolarda hamda obrazli tasvir uchun turli shakllarda qo’llanish zarurati ma’lum darajada tilning barcha funksional uslublarida bor bo’lsa-da, ammo ularni badiiy uslubdagichalik bemalol, erkin, mukammal va keng doirada foydalanishning imkoniyati yo’q. Boshqa uslublarda asosan ko’pchilikka ma’lum bo’lgan, tilda qisman turg’unlik kasb etgan tasviriy vositalarga murojaat qilinadi. Badiiy matnda esa tasviriy vositalarning shunday ko’rinishlariga duch kelamizki, ularni faqat maxsus ijodiy mehnat mahsuli bo’lgan badiiy tafakkurgina yuzaga keltirishi mumkin”²².

Uzoq tarixiy yo’lni bosib o’tgan o’zbek tili va uning badiiy uslubi bugungi kunda badiiy tasvir vositalarining, nutqiy ekspressiyaning juda katta xazinasiga ega. Jumladan, unda keng tarmoqli, an’anaviy troplar sistemasi mavjud. Masalan, mumtoz adabiyotdagi yorni, Ollohn madh etish bilan bog’liq bo’lgan juda ko’plab tasviriy vositalarning, she’riy san’atlarning mavjudligi madaniyatimizning, san’atimizning ildizlari juda chuqur ketganligidan dalolat beradi. Ularning milliyligi va individualligi ham ana shu tarixiylik bilan mustahkam bog’langandir. “O’zbek tili badiiy uslubining shakllanishi va taraqqiyotida adabiyotimizdagi har bir janr va har bir badiiy san’at- tasviriy vositalarning alohida o’rni va xizmati bor”²³.

Uslubiy vositalarning badiiy uslubdagi ahamiyati haqida S.Mamajonov shunday deydi: “tasviriy vositalar duch kelgan odam minib ketaveradigan, egarlab qo’yilgan ot emas. Qaysi tasviriy vositani qanday qo’llash har bir ijodkorning dunyoqarashi, g’oyasiga, voqelikka munosabati, uni o’ziga xos ko’rishi, idrok etishi, tushunishi va tushuntirish uslubiga, badiiy tafakkuriga, lirik qahramonning xususiyatiga, qisqasi, shoirning o’ziga xos uslubiga bog’liq. Haqiqiy san’atkor hech vaqt, mana shu joyda falon usulga yoki falon tasviriy vositaga murojaat

²² Karimov S.A. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. – Samarqand: SamDU nashriyoti. 1994. – 72 b.

²³ Doniyorov X., Yo’ldoshev B. Adabiy til va badiiy still. – Toshkent: Fan. 1988. – B. 79.

etayin, degan o'yni xayoliga ham keltirmaydi, aksincha, o'z tafakkuri, g'oyaviy niyati, tushunchasi va materialning taqozosi bo'yicha ish ko'radi. Ijodkorning ruhiy olami, uni ilhomlantiradigan hayotiy voqelik qanday bo'lsa, uning tasviriy vositalari ham shunday bo'ladi"²⁴.

Zero, adabiyot tildan boshlanadi. Rangsiz tasvir, changsiz musiqa bo'lmaganidek, tilsiz adabiyot ham bo'lmaydi. Tilning jozibadorligi va adabiyotning rang-barangligi ham bir qator tasviriy vositalarning ishtirokiga bog'liq. Mana shunday badiiy uslub uchun ahamiyatli bo'lgan, troplar guruhiga kiruvchi tasvir vositalarining asosiylaridan biri metofara haqida fikr yuritamiz.

Ma'lumki, metaforalar haqidagi nazariy qarashlar qadimgi davrlardayoq mavjud bo'lgan. "Metafora hosila ma'no yuzaga kelishi hodisalarining eng faoli hisoblanadi. U, tilshunoslikda qayd etilishicha, hosila ma'no yuzaga kelishining hosil qiluvchi va hosila ma'no referentlari o'zaro o'xshash kelishiga asoslanadi"²⁵. O'tgan asrning so'nggi choragida kognitiv tilshunoslikning taniqli vakili bo'lgan J.Lakoff hamda mashhur faylasuf M.Jonson tomonidan yaratilgan metaforalar to'g'risidagi tadqiqot bu boradagi qarashlarning tub burilishiga sabab bo'ldi. Mazkur tadqiqotchilar kognitiv metaforalar nazariyasiga asos solib, metaforalar faqat til hodisasi bo'libgina qolmay, inson tafakkurining ham ajralmas qismi ekanligini chuqur yoritib berdilar. J.Lakoff hamda M.Jonson: "Metaforalar nafaqat kundalik hayot, nafaqat til, balki tafakkur va faoliyatimizga ham kirib boradi. Bizning kundalik tushunchaviy tizimimiz ham o'z mohiyatiga ko'ra metaforikdir", - deb ta'kidlagan edilar²⁶. Nutqqa obrazlilik, ta'sirchanlik baxsh etish maqsadida ikki narsa yoki hodisa o'rtasidagi o'xshashlik, muvofiqlik asosida ularning biri o'rnida xuddi shu ma'noni anglatadigan (butunlay boshqacha tarzda) so'z yoki ibora ko'chma ma'noda ishlatiladi. Ana shu so'z yoki ibora metafora hisoblanadi"²⁷. Matnga lingvopoetik yondashuvda lisoniy va xususiy-muallif metofaralarni farqlashimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Lisoniy metofaralarni

²⁴ Mamajonov S. Uslub, obraz, tasviriy vositalar //Sharq yulduzi, 1969, № 6, B. 197.

²⁵ Xudoyberganova D. // Matnning mazmuniy tarkibida metaforalar. O'zbek tili va adabiyoti. 2012. № 1. 35-b.

²⁶ Xudoyberganova D. // Matnning mazmuniy tarkibida metaforalar. O'zbek tili va adabiyoti. 2012. № 1.

²⁷ Boymirzayeva S. O'zbek prozasining lingvostilistik tadqiqi. F.f.d.dar. olish uchun dissertatsiya. – Samarqand. 2004.

tadqiqotchilar “bunday metofaralar, asosan, atash, nomlash vazifasini bajarganligi uchun ularda uslubiy bo’yoq, ekspressivlik, binobarin, ular ifodalagan nutq predmetiga nisbatan sub’yektiv munosabat aks etmaydi”²⁸ – deb izohlaydilar. Masalan: Stolning oyog’i, odamning oyog’i.

Xususiy-muallif metaforalari esa yangi va kutilmagan bo’ladi. Ularni ijodkorning o’zi estetik maqsad, ya’ni borliqni sub’yektiv munosabatini ham qo’shib obrazli ifodalab nomlash asosida yaratadi. Ular uslubiy jihatdan bo’yoqdorlikka va voqelikni obrazli tasvirlash xususiyatiga ega bo’ladi. Shuning uchun ham badiiy matnda qahramonning his-tuyg’ularini ta’sirchan, yorqin bo’yoqlarda, aniq va ixcham ifodalashga xizmat qiladi. Shuning uchun ham bunday metaforalar badiiy matnning lingvopoetik tahlilida muhim o’rin tutadi. Xususiy-muallif metaforalarida hamisha konnotativ ma’no aniq holda ifodalanadi. Ijodkorning o’zi tomonidan yaratilgan odatiy metaforalar juda to’q obrazli badiiy ma’nolarni yuzaga keltiradi. Yozuvchi ijodida hatto bitta metaforik qo’llangan so’z butun bir matnni o’z atrofida jipslashtirishi, tayanch nuqta hisoblanib, metaforik kontekst hosil qilishi mumkin. Masalan: Oybekning “Quyosh qoraymas” asarida ham mana shunday obrazli, badiiy ma’nolarni yuzaga keltiruvchi metaforalarni ko’rib chiqaylik.

Qorong’i tushdi. Jahannamga aylangan jang tingandan so’ng, tilka-pora bo’lgan yer ham, dud bosgan osmon ham go’yo horg’in, ma’yus nafas olardi.(Q.q., 8-b).

Ma’lumki, diniy tasavvurlar bo’yicha jahannam cho’g’i, mangu lovullab yonib turuvchi olovga to’la bo’lgan joy. Yozuvchi ana shu tasavvurga asoslanib, jang maydonini tasvirlashda uzundan uzun jummlalarni qo’llab o’tirmay, jahannam so’zidan foydalanadi. Bunda jahannam so’zi diniy tasavvurdagi do’zax va jang maydonidagi o’xshash holatni aniq va tushunarli ifodalovchi muhim uslubiy vositaga aylangan. Romanda jahannam so’zining matnga bog’liq holda ma’no anglatish doirasining kengayib borishi kuzatiladi.

²⁸ Yo’ldoshev. M. Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi. F.f.d. dar.Olish uchun diss. – Toshkent. 2008. – B. 312.

Dastlabki misolda jahannam so'zi joyga nisbatan tasvir vositasi sifatida qo'llanilgan bo'lsa, keyingi misolda u harbiy qurol-yarog' tushunchasi atrofida birlashuvchi so'zlar o'rnida qo'llanyapti. Matnda endi bu so'z lug'atda qayd etilgan ma'nolardan tashqari yangi bir ma'no – o'q, snaryad, bomba ma'nosini ifodalash uchun ham xizmat qilmoqda. Quyidagi misollarda ham bu so'zning aynan shu ma'noni ifodalab kelayotganligi seziladi: *Odamlar jon hovuchlab o'zlarini o'rmonga uradilar. Havodan **jahannam yog'iladi**. (Q.q. 1-b).*

*“Lekin u o'zini har qancha tutishga, g'azabli kuchlarini yig'ib, mo'ljallab otishga tirishga ham, yerni titratib, gulduros bilan **jahannam yog'dirib kelayotgan temir devorlarning** vahmidan bosh ko'tarish amrimahol edi” (Q.q. 19-b).*

Demak, “Oybek har bir so'zga qalb qo'ri, tafakkur yolqinini singdirishi tufayli qalamga olingan obyektning tabiiy, haqqoniy ifodalanishini ta'minlaydi”²⁹.

Diniy tasavvurlarda jahannam ustiga qildan quriladigan ko'prik ma'nosini bildiruvchi qilko'prik so'zini yozuvchi mashaqqatli, azob-uqubatli ahvolni ifodalash maqsadida qo'llaydi” *Shomdan so'ng, Bektemirning ta'biricha, yana “qilko'prik” sayohati boshlanadi. (Q.q. 128-b).*

***Qora qanotlar** o'sib, havoni qoplardi... Bektemir g'ayri shuuriy ravishda okopning devorlariga yopishmoqqa tirishdi. (Q.q. 12-b).*

***Qora balolarning** qanotlari on sari o'sdi, osmonda mash'um sadolarning to'lqini zo'raya bordi (Q.q. 14-b).*

*Tanklar ko'zdan g'oyib bo'lishi bilan ufqni yana **qora qushlar** galasi tutdi. Birpasda **qora girdob** kabi tepada aylandi (Q.q. 16-b).*

Yozuvchi samolyot so'ziga nisbatan “**qora qanotlar, qora balolar, qora qushlar**” metaforik birikmasini mohirona qo'llaydi. Ushbu so'z birikmasi shaklidagi metafora matn tarkibida ham, uning semantik tuzilishida ham muhim o'rin egallaydi. “Qora qanotlar va qora balolar” metaforik birikmalari orqali

²⁹Boymirzayeva S. Oybek prozasining lingvostilistik tadqiqi.F.f.n.dar. olish uchun dissertatsiya. – Samarqand. 2004.

muallif urush haroratini kuchaytirish uchun qora sifatlashidan foydalanganligi ham alohida e'tiborga molikdir.

*Oh, navqiron inim, mehribonim!- deya qichqirdi Polvon, **azamat gavdasini** silkitib (Q.q. 13-b).*

*Ular qalin daraxtlar orasida urinib borardilar. O'rmonning borgan sari chuqurlashgan **azamat sukunati** ularning ruhini yupatardi (Q.q. 18-b).*

Bizga ma'lumki, azamat so'zi **botir, bahodir qo'rqmas** ma'nolarida qo'llaniladi. Yuqoridagi dastlabki misolda **"azamat gavdasini"** metaforik birikmasida ma'na shu ma'noni ifodalshga xizmat qilgan. Ikkinchi misolda ya'ni **"azamat sukunati"** birikmasida esa sukunatga nisbatan azamat sifatining qo'llanilishi bu- chinakam oybekona mahoratdir.

*Bektemir tanklar panasida yugurgilab kelayotgan dushman avtomatchilarini ko'rdi. Ular ko'p edi. Ular, mashinalardan sakrab, bu **temir maxluqlar** panohida ilgarilashardi. (Q.q. 15-b).*

***Temir maxluqlarning** g'azabi go'yo haddiga yetdi. (Q.q. 53-b).*

*Oldingi **temir sovutli balo maxluqlardan** uchtasi falaj bo'lganday dalada cho'kib qoldi (Q.q. 44-b).*

Ko'rinib turibdiki, Oybek urush tasviriga mos ravishda barcha qurol-aslahalar nomlarini uslubiy vositalar yordamida yanada ta'sir va tasvir bo'yog'ini kuchaytirganligini kuzatamiz. Ushbu misollarda **tankka** nisbatan **"temir maxluq, temir sovutli balo, jonli qo'rg'on, temir ro'dapo"** kabi tasviriy vositalar ining uchrashi ham yozuvchi uslubining o'ziga xos jihatini ko'rsatadi. Asarda keltirilgan barcha metaforalar, nazarimizda, har biri aniq bir maqsad bilan qo'llanganki, bu, birinchi navbatda, roman mavzusi bilan bog'liq. Ular asosan asar personajlarining urush hayotini, e'tiqodini, dunyoqarashini mujassam qiladi. Shuning uchun ham aksariyat qismi qahramonlar tilidan berilganligini guvohi bo'lamiz. Quyidagi parchaga diqqat qolaylik:

*O'ldi. **Chinakam burgut, o't edi!** Bektemir achinib, boshini dard bilan og'ir chayqab qo'ydi (Q.q. 22-b). Birgina o't edi birikmasi bilan yigitga xos*

bo'lgan g'urur, or-nomus, mardlik kabi barcha xususiyatlarni tasvirlash imkoniyatiga ega bo'lgan.

*Qaytish qiyin. Bu yerda **o'limning o'rog'i** kamalakday katta (Q.q.8-b).*

*To'g'ri,- dedi Bektemir o'ylanib,- **o'limning bozori** qizg'in. lekin xudoga shukur, mana ikki haftadan buyon tirikmiz (Q.q. 27-b). muallif urush suvratini chizishda o'limning bozori, o'limning o'rog'I kabi metaforalarni ham qo'llaydi. Bilamizki, asarda urush voqealari hikoya qilinmoqda. Tabiiyki, asosiy suhbat mavzusi hayot va o'lim haqida, botirlik, qahramonlik va qo'rqqoqlik haqida bo'ladi.*

Yozuvchi kechayotgan voqealarni tasvirlar ekan, ularga nisbatan o'z subyektiv munosabatini ifodalashda tarixiylik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlardan o'rinli foydalanishga alohida e'tibor qiladi. Shayton, ajina, dev singari mifologik obrazlar nomlaridan bosqinchi fashistlarni tasvirlashda mohirlik bilan foydalanadi. "Quyosh qoraymas" romanida ko'pgina metaforalar bosqinchilarga qarshi nafrat, g'azab ifodasi sifatida qo'llanilganining guvohi bo'lamiz. Oybek ijodidagi ushbu poetik metaforalar muammolarni aniq material asosida nazariy, adabiy-tarixiy va individual-ijodiy tomonlarni o'zaro aloqadorlikda olib qarab o'rganish poetik ijodning, yozuvchi uslubi va mahoratining ko'plab tomonlarini aniqlashga imkon beradi. Misollardan ko'rinib turibdiki, Oybekning obrazli tasvir ifodasi uchun hamisha badiiy tafakkur qurshovida bo'lganligini, tinimsiz tashbehlar va muqoyasalar izlaganini isbotlay oladi. Umuman olganda, Oybek asarlarida metaforalar juda ko'pchilikni tashkil etadi. Shu bilan birga ular yozuvchi ko'zlagan maqsadning ro'yobga chiqishida muhim uslubiy vazifa bajargan. Yozuvchi asarlarida metaforalar badiiy tasvirning to'laqonli chiqishida, ekspressivlikni kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday ekan, tasviriy vositalar badiiy asar tilining jozibador, ta'sirchan bo'lishini ta'minlashda, personajlar nutqini individuallashtirishda, tarixiy voqea-hodisalarning real tasvirini berishda muhim uslubiy vosita hisoblanadi.

Ravon va aniq badiiy ifodani shakllantirish, so'zning hissiy ko'lami-ohangdoshlik, bo'yoqdorlik, ta'sirchanlikni ta'minlashda metafora muhim o'rin

tutadi. Zero, hayot haqiqatining poetik mohiyatini yoritish, inson borlig'ining falsafiy-ma'naviy, ruhiy miqyosini ochib berishda metafora ijtimoiy-axloqiy talqindan badiiy idrokka, umum asosdan obrazlilikka o'tadigan zinapoya vazifasini bajaradi. Tor ma'noda bu tushuncha estetik me'yor, baholash mezonini va o'ziga xoslik- alohidalik majmuidan iborat. Nutqiy ekspressiyani ifodalashda eng samarali vosita sanaladi. Chunki shoirlik qobiliyati musavvir, musiqashunos, olim sinchkovligini o'z ichiga oladi. Obrazlilikning o'zagi, dinamik o'sish-o'zgarishlar tadrijini ta'minlaydigan vosita sifatida metafora quyidagi badiiy- funksional jihatlarni qamrab oladi:

1. Metaforada ma'no tugallanmaganligi va davomiyligi mujassam. Aynan uning yashovchanlik xususiyati, zamonga moslanuvchi tabiati- uzluksizligi dialektik aloqadorlikdan badiiy munosabatlarga ko'tarilish muvozanatni belgilaydi. Aniqrog'i, moddiy axborot shakli ijodiy talqinga qadar yuksaladi. So'zning boshlang'ich va ko'chma ma'nolari orasidagi masofa uzoq-yaqinligi. Tabiiy-sun'iyliги ilmiy-mantiqiy dalildan yuqori turadigan poetik mohiyatini yuzaga chiqaradi. Ba'zan datlabki ma'no hamda uning qirralari o'rtasidagi bog'liqlik uzilishi mumkin. Bunday holatda lirik assotsiatsiya qudratigina badiiy to'qimalarni tartibga soladi, boshqaradi. "Quyosh qoraymas" romanida qo'llangan metaforalarga murojaat etamiz: *Yengil tuman orasida quyosh shulalarida endi ochilgan samo mash'um quvur bilan to'ldi. Qayerdandir, yaqindan, zenetkalar shiddatli o't ochdi. Stansiyada odamlar jon hovuchlab yiqilib, kalxatdan qochgan jo'jalardek, o'zlarini har yoqqa urdilar. (94 bet).*

Ulug' vatan urushi tasvirlangan bu misolda voqealar rivojini davomiyligi va matnda metafora, ibora va o'xshatishlar ishtirokini ko'ramiz. Yozuvchi "yengil tuman" metafora, "jon hovuchlab" ibora va "kalxatdan qochgan jo'jalar" o'xshatish kabi badiiy tasvir vositalari orqali matnning estetik imkoniyatlarini voqelantirgan.

Yoki: Hansiragan, vazifa uchun o'tga, suvga o'zlarini otishga tayyordek fidokorona ishlayotgan hamshiralarni uzuq-yuluq gaplaridan Rashid dushmanning yaqinligini, qurshovda qolish ehtimoli borligini payqadida, go'yo

uni birov o'lim og'ziga yem qilib tashlab ketayotgandek, butun vujudini dahshat qopladi. (93 bet).

Bu misolda dushmanga qarshi kurashda voqealarni davomiyligi “O’lim og’ziga yem qilib” orqali o’z aksini topgan va achinarli, salbiy ottenkali misolda ma’no tugallanmaganligi, davomiyligi ifodalangan.

2. Metafora muayyan ma’noda axborot tashiydi. Uning ma’naviy-ma’rifiy-madaniy darajasi shu xususiyatda o’z aksini topadi. Negaki, so‘zning emotsional-ekspressiv qudrati ifoda, tasvir va talqinga yangicha ijodiy yondashuv vositasida namoyon bo‘ladi. Demak, shoir badiiy tafsilotlarni tahlil qilish bila cheklanib qolmaydi, balki poetik mushohada vositasida ta’sir kuchiga ega bo‘lgan o‘zgacha g‘oyaviy munosabatni shakllantiradi. ***Masalan: Bektemir o‘z atrofida qandaydir bir bo’shliq sezganday g’amgin boqdi. Qiz uzoqda siyrak daraxtlar orasida yo‘qolarkan, Bektemir shirin xayollar quchog’ida o‘ksinib qoldi. (98 bet)***

Bu misolda shirin xayollar quchog’ida metaforik birikma asosida muayyan ma’noda axborot tashiydi va matnda imkoniyat va estetik ifodani g’amgin holati tasvirlangan.

Yoki:

Dushman g‘azab bilan hamon tank ortidan polk, diviziya ortidan diviziya tashilardi. U yettinchi noyabr butun sovet xalqining saroyiga g’amning qora zahrini qo‘yib, qizil maydonda tantana qilmoqchi edi. (116 bet).

Bu misolda “g’amning qora zahrini” metaforik birikma asosida muayyan ma’noda axborot tashiydi va dushmanning qora niyatini puchga chiqishiga ishonib matn voqelanishiga imkoniyat yaratadi.

3. Metafora tarixiy o‘zgaruvchanlik tamoyiliga tayanadi. Falsafiy mushohada teranligini shakliy ixchamlikka qarama-qarshi qo‘yadigan tasvir vositasi, bir tomondan. Davr ijtimoiy-psixologik asoslaridan oziqlansa, ikkinchi tomondan. Zamon, makon va imkon chegaralarini kengaytiradi. Tushunchaning ko‘p qatlamligi hamda ma’no qirralarining ortib borishi uning doimiy harakatlanish miqyoslarini belgilab berdi.

Umuman, metafora tilning tabiiy mavjud nafosat qirralarini gavdalantirgan holda fikr va hissiyot ta'sirini kuchaytiradi; moddiy asosdan badiiy tafsilotga o'tishda ko'prik va hissiy zanjir vazifasini bajaradi: o'ziga xos badiiy-ijodiy mantig'i bilan poetik assotsiatsiyalarni hosil qiladi, rivojlantiradi; obrazlilikka doir emotsional-ekspressiv mohiyatni shakllantiradi. ***Masalan: Quyosh bulutlar orasidan ora-sira mo'ralar, sarg'aygan daraxtlarni bir zumgina oltinlatib, eringandek, yana bulut ko'rpasiga cho'lg'anardi. Asqar polvon o'zi qo'ngan uyning qarshisida yiqilib yotgan daraxtda o'ksik qoshlarini chimirib o'tirardi. (45- bet).***

Bu matnda uchta metaforik birikma misollari o'z aksini topgan. "Ora-sira mo'ralar", "bulut ko'rpasiga" va "o'zi qo'ngan uyning" kabi metaforik o'xshatishlar o'zgaruvchanlik tamoyillariga asoslangan bo'lib, so'z imkoniyatlarining matnda voqelanishida o'z ifodasini topgan.

Yigitlarning kipriklari qirovlangan, qovjiroq ko'zlariga og'ir o'y cho'kdi. Ular qahri sukutda oldinga, varonkalar bilan qoplangan dala ortida qorayib ko'ringan o'rmonga qaradilar. (115 bet).

Bu misolda ham urush yillaridan tarixiy voqealar aks ettirilgan. "kipriklari qirovlangan", "qovjiroq ko'zlar", "og'ir o'y" kabi metaforik birikmalar voqealar rivojida o'zgaruvchanlik tamoyillariga asoslangan.

Umuman, metaforaning badiiy adabiyotda, badiiy asarlardan xususiyatlari ko'p va rang-barangdir. Biz ayrimlariga to'xtaldik xolos.

Oybek tasvirda an'anaviy ifodalar bilan chegaralangan emas. Ularni ba'zan ijodiy o'zlashtiradi, qayta nomlaydi va perifrastik iboralar, maqollar hosil qiladi. "Quyosh qoraymas" romanida ham maqollar salmoqli o'rin egallaydi.

Maqollar xalq tafakkuri, xalq hayotiy tajribasidan kelib chiqadigan xulosaviy ixcham va ko'rkam badiiy fikrlar ifodasidir. Ularning har biriga butun bir kitoblarga tatigulik keng va chuqur ma'no, his-tuyg'u ifodasi jamlanadi. "So'z xazinasining dur-u javharlarini o'zida mujassam qilgan maqollar, nutqimizning ekspressiv (ya'ni ta'sir etuvchi, his-hayajon uyg'otuvchi) vositalari orasida eng ta'sirchan, eng esda qoluvchi, kishini o'ylanishga, fikrlashga majbur qiluvchi

kuchga egadir”.³⁰ «Har kuni aqalli bitta qo’shiq eshitish, yaxshi rasm ko’rish va iloji bo’lsa, istagan bir hikmatli so’zni o’qib olish darkor. Turli- tuman tarbiyaviy hikoyalar va hikmatli so’zlarni to’plash tengsiz hikmatdir.» (I. Gyote).

“Maqollar kundalik hayotimizda, o’zaro muomala jarayonida qanchalik muhim ahamiyat kasb etsa, badiiy asar tilida ham ularning ahamiyati shunchalik kattadir”.³¹ Adabiy muloqot jarayonining ko’chishini, badiiy asar matnining estetik mazmun olishini maqolsiz tasavvur etib bo’lmaydi.

Asar badiiyatini tashkil etuvchi birliklarning badiiy-estetik vazifasini yozuvchining so’z qo’llash mahorati bilan bog’liq holda o’rganishning ahamiyati katta. Zero, yozuvchining badiiy mahorati uning so’z qo’llash manerasi bilan belgilanadi. Umuman, so’z san’atkorlari maqollardan badiiy matnning badiiy-obrazlilikini, estetik ta’sirchanligini oshirishda, personajlar nutqini, xarakter-xususiyatini o’ziga xos tarzda ifodalashda unumli foydalanadilar.

Oybekning so’zdan foydalanish mahorati betakror. Yozuvchi so’zning ma’no ko’lamdorligiga, nozik uslubiy qirralariga sinchkovlik bilan e’tibor beradi va ularni jumla tarkibiga ustalik bilan singdirib yuborib, asar badiiyatini ta’minlovchi badiiy tasvir vositasiga aylantiradi. Buni uning maqollardan foydalanish mahoratida ham kuzatish mumkin. “Oybek xalq maqollarini juda chuqur biladi. Shu boisdan ifoda mantig’ini kuchaytirishda, tasvirni ixchamlashtirishda ulardan juda o’rinli foydalanadi”.³² Ba’zan ularni qurilish yoki mazmun jihatidan o’zgartirib, badiiy obyektning yorqin ifodasi uchun imkon hozirlaydi. Ayni chog’da o’zi ham hikmatli so’zlar, ibratli iboralar ijod etib, badiiy tafakkur qudrati, topqirligini namoyon etadi. Oybek davr ruhini berishda «Quyosh qoraymas» asarida ham maqollarni muhim uslubiy vosita sifatida qo’llaydi. Bizga ma’lumki, asar urush mavzusida. Unda ikkinchi jahon urushi voqealari qalamga olingan. Yozuvchi qahramonlar nutqini individuallashtirishda urush voqealari bilan bog’liq maqollarni qo’llaydi. Asar qahramonlaridan *Asqar va Bektemirning*

³⁰Abdurahmonov X. O’zbek xalq og’zaki ijodi asarlarining sintaktik xususiyatlari bo’yicha kuzatishlar.–T.: Fan. 1976, 11-b.

³¹Shomaqsudov Sh., Shoraxmedov Sh. Hikmatnoma. O’zbek maqollarining izohli lug’ati. Toshkent: Ensiklopediya bosh redaksiyasi. 1990. -558 b.

³²Boymirzayeva S. Oybek prozasining lingvostilistik tadqiqi. Filol.Fan.nomz. diss. – Samarqand. 2004. 65-b.

diltang hangomasi shunday beriladi: «-qiblanomasi bilan karta-martasini komandir yig'ishtirib qo'ysin. Ko'zim qiblanoma, yuraver. Eng yaxshi yo'l tavakkal! -dedi sekin.

- Bekordan-bekorga o'zini o'tga-cho'qqa urishdan nima foyda? Hozirgi paytda **“yetti o'lchab, bir kesish kerak”**, - javob berdi Bektemir horg'in va noxush.

-Yetti o'lchash uchun qorin to'q bo'lishi kerak, - dedi Asqar polvon. – **“Bo'sh qop tik turmas...” (98—99-betlar).**

Bektemir nutqidagi *«yetti o'lchab bir kesish kerak»* va Asqar nutqidagi *«bo'sh qop tik turmas»* maqollarida ikki fikr, ularga tayanch bo'lgan ikki mantiq mujassam. Bunday qaraganda, bu ikki maqol kurashayotgandek tuyuladi. Haqiqatan ham ulardagi fikrlar kurashmoqda, har bir mantiq bir-birini ham rad etayotir, ham to'ldirayotir. Darhaqiqat, qorin och qolganda o'ylab o'tirishga sabr-bardosh yetmaydi. Ammo front sharoitini hisobga olsak, sabr, tadbirkorlik, puxta o'ylab qadam tashlash g'oyatda zarur. Negaki, ochlikdan qutilaman deb shoshib, fashistlar o'qiga o'zni urib olish behuda, jonni saqlash, bekorga qurbon bo'lmaslik uchun yetti o'lchab bir kesish kerak. Shu jihatdan hayotga muhabbat sabr- bardosh baxsh etib, ochlikni yengishi mumkin. Oybek mana shu tarzda ikki mantiq orasidagi kurash, dialektik bog'liqlikni yuzaga chiqaradi, ularda qahramonlarning fikr, saviyasini mujassamlashtiradi. Shu tariqa katta mazmunni ixcham tarzda ifodalaydi.

Adib ba'zan hikmatli iboralarni mazmun va ko'rinish jihatidan qayta qurib, vaziyatni, sharoitni, ayni mahaldagi holatni yorqinroq ifodalaydi, biror shaxsning suhbatdoshiga berayotgan daldasini mantiqan kuchaytiradi. Tilimizda **«qirq yil qirg'in bo'lsa ham, ajali yetgan o'ladi»** degan gap bor. U har narsadan tashvishlanavermaslikni, xavotirlanmaslikni anglatadi. Oybek buni quyidagicha qo'llaydi:«-Yigit yurakli bo'lishi kerak, do'stim, - dedi Bektemir. -Qariyalarning yaxshi so'zi bor: **“Qo'rqmas qirq yil qirg'inda yursa, qilich o'tmaydi”** (214-b).

Yozuvchi kiritgan o'zgarish iboraning vaziyat bilan yanada bog'lanib ketishini ta'minlagan: bu o'rinda ibora faqat tashvishlanmaslikni emas, balki mutlaqo qo'rqmas bo'lishni uqtirayapti; *«ajali yetgan o'ladi»* qismining *«qilich*

o'tmaydi» bilan almashtirilishi maqolda mujassamlashgan ma'noni ham oydinlashtirgan, ham kuchaytirgan. Chunki urush havzasida yurgan jangchilarga «*ajal*», «*o'lim*» so'zlarini ishlatib gapirishdan ko'ra «*qo'rqmasang qilich ham o'tmaydi*» deyish mazmunni yanada bo'rttirib ta'kidlaydi va ko'proq, ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Oybek maqolga yuklagan niyatining to'la ro'yobga chiqishi uchun uning tarkibidagi qo'shimchaga ham e'tibor berib, bo'lishsiz inkor shaklini ishlatadi: xalq nutqida «*ajali yetgan o'ladi*» deb ma'lum holat bo'lishi mumkinligi aytilib, fe'l bo'lishli shaklda kelsa, adib «*qilich o'tmaydi*», deb bo'lishsiz shaklini tanlaydi va har bir holatdan mazmunning jangchilarga ko'proq **ta'sir etishini**, ularni dovyurak bo'lishga undashni ko'zlaydi. Adib ibora qamragan holatni yanada aniqlashtiradi: xalq nutqida «*qirq yil qirg'in bo'lsa ham, ajali yetgan o'ladi*» deyilib, qirg'inda qatnashuvchilar umuman jumla ruhidan sezilsa, Oybek «*qo'rqmas qirq yil qirg'inda bo'lsa, qilich o'tmaydi*» deb dovyurak kishi qirg'inning ichida yurganda ham omon qolishini anglatgan. Mana shularning xulosasi sifatida yana bir narsa oydinlanlashadi: ibora xalq nutqida tavakkal ma'nosini bildirsa, Oybek tasvirida qo'rqmas, dovyurak bo'lishga da'vat qilayapti. Maqollarni bu tarzda matn ruhiga moslab o'zgartirish yoki matn mazmuniga singdirib yuborish asarning boshqa o'rinlarida ham ko'zga tashlanadi. Yozuvchi bir o'rinda urush hamma uchun birday dahshatli ofat ekanligini ko'rsatish maqsadida «*To'qayga o't ketsa, ho'lu quruq baravar yonadi*» maqolini qo'llaydi: -Rostini aytsam, polvon, taqdir ham chippakka chiqqan! - dedi Ali tajang jaxl bilan. «*-To'qayga o't ketsa ho'lu quruq baravar*» (Q.q. 21- b). Mina bilan snaryad degan balo taqdirning temir qo'rg'onini ham yorib o'tadi.

Romanning boshqa bir o'rnida esa shu maqolning matn mazmuniga singib ketganligi seziladi:

Bironta choldevorga o't tushsa, o'zingizga ma'lum, bizning yoqlarda o'chirish uchun butun mahalla chelak ko'tarib yuguradi, - dedi uzun oyoqlarini bukib asta cho'qqayib: Yov shunday azim mamlakatning kulini ko'kka sovurmoqchi. Binobarin, butun xalq, yosh-u qari fidoyi bo'lib qo'zg'alishi kerak (Q.q. 188- b).

Maqollarning dialoglarda ko'p uchrashi ham yozuvchi uslubining o'ziga xos jihatini ko'rsatadi. Quyidagi parchaga diqqat qilaylik:

-Onam saratonda, yer tandirday qiziganda tuqqan, - dedi Bektemir kulib. - Lekin sen nemisning holiga bir qara. Och arvohday qaltiraydi. Rus kishi fritsning dushmani. Dushmanimning dushmani - mening do'stim...

- Rost aytasan, Bekcham, - jiddiy gapirdi Polvon. - Men ham payqayapman to'ng'iz qopkur sovuqqon ojiz ekan. Biroq yalang'och suvdan toymas deganday kun sayin battar quturmoqda...

-Shoshgan o'rdak ham boshi bilan sho'ng'iydi, ham dumi bilan... dedi Bektemir (Q. q 173 - b).

Yuqoridagi parchada uchta maqol qo'llangan bo'lsa-da, ularning ortiqchaligi sezilmaydi, kitobxonda tabiiydek tasavvur uyg'otadi.

Asarda keltirilgan maqollar, nazarimizda, har biri aniq bir mo'ljal bilan qo'llanganki, bu birinchi navbatda, roman mavzusi bilan bog'liq. Ular asosan asar personajlarining urush hayotini, maslagini, e'tiqod dunyoqarashini mujassam qiladi. Shuning uchun ham aksariyat qismi qahramonlar tilida berilgan.

Ammo ularning Oybek qalamida ma'lum tematik yo'nalishga bo'ysundirilishi ibratlidir. Asarda urush voqealari hikoya qilinmoqda.

Tabiiyki, asosiy suhbat mavzusi hayot va o'lim haqida, botirlik, qahramonlik va qo'rqqoqlik haqida bo'ladi.

«Quyosh qoraymas»dagi maqollar va aforistik xarakterdagi iboralar miqdor jihatidan ko'p emas va ular asar mavzusi, g'oyasi va qahramonlar ruhiyatidan tashqariga chiqmaganligi bilan ajralib turadi.

Asarda personajlar nutqini individuallashtirishda bulardan tashqari, yana *kerakli toshning og'irligi yo'q, davlat tinch - xalq tinch, qimirlagan qir oshar, nafsi buzuq hayitda o'ladi, yetti o'lchab bir kes, kafanlik kiygan keladi, otang -el onang-el, shoshgan kishining aqli qochadi, qari kelsa oshga, yosh kelsa ishga, yigit so'zidan arslon izidan qaytmas, do'st so'zini tashlama, tashlab boshing qashlama* kabi maqollardan ham foydalanilgan.

Xullas, Oybekning ushbu asarida boshqa lisoniy vositalar qatori maqollar ham o'z o'rniga ega. Ular davr ruhini berishda, turli xil voqealarni tasvirlashda, personajlar xarakterini aks ettirishda, shuningdek, yozuvchi olg'a surgan g'oyani falsafiy-estetik jihatdan umumlashtirishda muhim uslubiy vazifa bajargan.

“Oybek tilining g'oyatda rangdor va aniqligi tufayli ifodalash qiyin bo'lgan har qanday murakkab holat ham uning asarlarida qo'l bilan ushlab ko'rish mumkin bo'lgan darajada tabiiy gavdalandi”.³³ Bu Oybekning “So'z faqatgina tushunarli bo'lib qolmasin, balki uning ohangi, yurakni larzaga keltiruvchi kuchga ega bo'lsin” degan jumllarida ham kuzatamiz”.

Oybek o'zining “Quyosh qoraymas” romanida til boyliklaridan mohirona foydalangan. U frazeologizmlar vositasida personajlarning xatti-harakati, ichki dunyosida bo'layotgan o'zgarishlar, turli xil ruhiy holatlarning betakror tasvirini bera olgan.

Iboralar xalq donoligining bebaho boyligi sifatida nutqni obrazli qiladi, fikrni ixcham va lo'nda ifodalaydi. Badiiy asarlarda frazeologik iboralardan voqelikni aniq va to'la gavdalandirish maqsadida foydalanilishi ma'lum. Iboralar tilshunos A.Mamatov ta'kidlaganidek, “u yoki bu xalq yashayotgan joyning tabiati, tarixi, madaniyati, hayot tarzi, og'zaki ijodiyoti, badiiy adabiyoti, san'ati, fani, urf-odati, dini kabilar bilan bog'lanadi”.³⁴ “Ijodkorlar boshqa lingvisik birliklar qatori iboralardan ham lingvopoetik vosita sifatida foydalanadi, badiiy asar tilini jonlantiradi. Personaj va obrazlar nutqida iboralarni qo'llash qahramon xarakterini yaratishda yordam beradi. Har qanday yozuvchi xalq iboralari, matallari, keng iste'molda bo'lgan faol birikmalardan foydalanar ekan, qahramonlarning tashqi qiyofasi bilan birga ma'naviy dunyosini, psixologiyasini ham ishonarli va ta'sirchan qilib tasvirlab berishni maqsad qiladi. Shuningdek, ularning ruhiy holatidagi tig'izlik tasvirida ham ayni leksik vositalarga murojaat qilinadi”.³⁵

³³Samadov Q. Oybekning so'z davlati. Toshkent. 1981.19 bet.

³⁴Mamatov A. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari Fil. Fan. doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. Avtoreferati. Toshkent — 2000.

³⁵Boymirzayeva S. Oybek prozasining lingvostilistik tadqiqi. Fil.fan.nomz.darajasini olish uchun yozilgan diss. Samarqand. 2004.

Muayyan tasvirda bir nechta ana shunday birliklarni ketma-ket keltirish orqali qahramon ahvol-ruhiyatining tasviri chiziladi. Ba'zan muallif nutqida, ba'zan qahramonlar nutqida qo'llangan iboralar esa adib asarlarining badiiy quvvatini oshirishga, ta'sir kuchini ta'minlashga xizmat qiladi.

Atoqli yozuvchi Oybek o'z asarlarida emotsionallik va ekspressivlikka boy bo'lgan til birliklarini qo'llashga va shu orqali badiiy asar tilining ta'sirchanligini ta'minlashga erishganligi frazeologizmlar misolida ham aniq ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, ko'z komponentli iboralar "Quyosh qoraymas" asarida alohida ahamiyat kasb etadi. Fikrimizning dalilini quyidagi misollar yordamida keltiramiz:

Ayni vaqtda kimningdir tepada qorasi ko'zga chalindi. (Q.q.). Ushbu misolda qo'llanilgan ibora umumtil leksikamizdagi faol iboralardandir. Uning ma'nosi "bir marta noaniq holda ko'rinmoq"dir³⁶. Mazkur ibora muallifning poetik maqsadi sifatida noma'lum kishining kelayotganligi haqidagi xabarni yetkazish uchun xizmat qilmoqda.

Keksa militsioner hujjatlarni chiroqqa tutib, qayta-qayta ko'zdan o'tkazdi. (Q.q.) Yuqoridagi misolda qo'llanilgan ibora "qarab chiqmoq, birma-bir ko'rmoq, sinchiklab tanishmoq" ma'nolarini bildiradi.³⁷ Asarning boshqa bir o'rnida ham xuddi shu iboraning qo'llanganligini ko'ramiz. *Bektemir birga yumalab-sumalab o'sgan Kamolning bolalikdagi o'yinlari, qiliqlarini ko'z oldidan jonli, yorqin o'tkazdi. (Q.q.)*. Boshqa bir o'rinda esa: *Keyin u yerto'lani ko'zdan kechirdi, negadir shiftga qarab qo'yidida, kallasini qimirlatib turib:- Talofot ko'pmi?- deb so'radi.* E'tibor beradigan bo'lsak, Oybek asarlarida qo'llangan umumtil va individual-muallif frazeologizmlarining lingvopoetik xususiyatlarini kuzatar ekanmiz, ushbu ijodkor qo'llagan iboralarning ko'p qismi umumtil fondiga oidligi, hech qanday tarkibiy o'zgarishga uchramaganligi ayon bo'ldi. Bu ibora shakliy va mazmunliy tuzilishidagi invariant belgining saqlanishidir.

"Bu do'ndiqchaning ko'ziga cho'p bo'ldik",- dedi Asqar iymanganday qizarib. "Tez ich, ketamiz. Qo'rqayapti bizdan",- dedi Ali Tajang. (Q.q.). Misolda

³⁶Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. Toshkent. Qomuslar Bosh tahririyati. 1992.

³⁷Yuqoridagi lug'at.

qo‘llanilgan “*Ko‘ziga cho‘p bo‘lmoq*” iborasi “o‘zining shu yerda bo‘lishi bilan norozilik, tashvish uyg‘otmoq” kabi ma’nolarni anglatadi. Yozuvchi Ali tajang va Asqar polvonning noqulay vaziyatda qolganligini obrazli tasvirlash maqsadida “*ko‘ziga cho‘p bo‘lmoq*” tarzida qo‘llab, ayni iboradan o‘rinli foydalangan.

Ko‘lmaklarda muz oynasi ko‘zni qamashtirardi. (Q.q). Keltirilgan misoldagi ibora ham leksikamizdagi eng sermahsul iboralardan bo‘lib, uning ma’nosi “nur aks etib, hech narsani ko‘rmadi” hisoblanadi.

“Ha siz ot minishga emas, qaziga ishqiboz ekansiz. Siringizni bilib oldik usta!”- “Aslo unday emas,- ko‘zlarining oqini o‘ynatdi Mirxoliq.- Ot askarning qanoti dedim-ku...” (Q.q). Ibora “kimning rozi emasligini ko‘zlarini ola-kula qilib bildirmoq” ma’nosini bildiradi.

Tuproqqa qorishgan kallalar, uzilgan qo‘llar, yerda cho‘zilgan ola-chipor ichaklarni ko‘rarkan, uning ko‘zlari qinidan chiqayozdi. (Q.q). Matnda qo‘llanilgan ibora “g‘azabi ko‘zida aks etib ko‘zi chaqchaydi” ma’nosini bildiradi. Iboraning” ko‘zlarining paxtasi chiqdi, ko‘zlari kosasidan chiqib ketayozdi” kabi sinonim variantlari ham mavjud.

Xalq yap-yangi to‘plar, yap-yangi tanklari shig‘ab berib turibdi-ya, ko‘zmi, po‘stakning yirtig‘imi?! (Q.q). Ushbu ibora “nega yaqqol ko‘rinib turgan narsani ham ko‘rmaysan” ma’nosida ishlatilib emotsionallikni ta’minlashga xizmat qilgan. Asarning boshqa bir o‘rnida yozuvchi ushbu iboraga yana bir bor murojaat qiladi. *Yo‘q, u odamning ko‘zi toza. Ko‘z po‘stakning yirtig‘i emas,- dedi ichida va shu munosabat bilan dadasining “karomatini” esladi.*

“Ilgari atlas to‘qirdim, uka, a o‘rtoq komandir,- deb boshladi u,- Kamina marg‘ilonlik. O‘zingiz bilasiz, xon atlaski, oftobda o‘n xil olov bo‘lib yonadi-yu, ko‘zni oladi”. (Q.q). Ibora lug‘atda “qaragan kishini o‘ziga mahliyo qilib qo‘yadi” ma’nosida izohlangan. Asarda ham xuddi shu ma’noda qo‘llanganligini guvohi bo‘lamiz.

Uning oyoqsiz gavdasi ustida enkayib, qotib qoldi. Keyin birdan ko‘zlari qaynab yoshga to‘ldi. Oybek, ko‘picha, avval u yoki bu iboraning ta’sir doirasini kengaytirish maqsadida birdaniga ikki yoki uchta iboraga murojaat qilishi orqali

his-hayajon oqimining yuksalib, darajama-daraja yuqorilab borishini ta'kidlashga erishadi. Bu esa ibora semantikasidagi bo'yoqdorlikni yanada bo'rttiradi.

Orqaga ildam jo'nadi. Lekin ko'p o'tmasdan, kunduzning ko'zi yumildi. Bizga ma'lumki, ko'z yummoq iborasi "qazo qilmoq, o'lmoq" ma'nolarida qo'llaniladi. Aynan ushbu iboraning kunduzga nisbatan qorong'u tushdi, kech bo'ldi ma'nolarida qo'llanilishi esa haqiqiy Oybekona mahoratdir. Yozuvchilar tomonidan xalq iboralarini qayta ishlashning o'ziga xos usullari, yangicha ma'no nozikliklarini berish yo'llari xilma-xildir. Xususan, ibora ma'nosini ikkinchi bir ottenka bilan to'ldirish, leksik tarkibini o'zgartirish yoki kengaytirish, yangi iboralar yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Iboralarning ayrim qismlarini o'zgartirish ibora tarkibidagi u yoki bu so'z boshqasi bilan shunchaki almashtirilmaydi, balki ma'noni yanada kengaytirib, tasvirlanayotgan harakat-holatni bo'rttirib ifodalaydigan so'zlar tanlanadi. Masalan, "*ko'zlarining paxtasi chiqdi*" iborasi "g'azabi ko'zlarida aks etib ko'zi chaqchaydi" ma'nosini bildiradi. Oybek esa ushbu iborani kengaytirib quyidagicha qo'llaydi: *Olov quyuni chirmagan saroydan ko'zlarini piyoladay-piyoladay chaqchaytirgan bir ot shatoloq otib chiqib, naq Ali tajangning ustidan sakrab o'tdida, qorong'ulikda g'oyib bo'ldi.*

Quvonchdan Bektemirning ko'zlari yonib ketdi. Boshqa bir misolda esa *Uning peshonasi burishgan, ko'zlarida chuqur qayg'u yonardi.* Misollarda qo'llanilgan iboralar muallifning poetik maqsadi sifatida Bektemirning turli xil ruhiy holatini ochib berish uchun ishlatilgan.

Shuningdek yozuvchi asarlarida ko'z so'zi bilan bog'liq "*ko'z tikmoq, ko'zi tushdi, ko'zdan g'oyib bo'ldi, ko'zini suzmoq, ko'zini qadamoq, ko'z ostiga olmoq, ko'zini uzmadi, ko'zi qamashmoq, ko'zi ilinmoq*" kabi ko'plab umumtil frazeologizmlari muallif va personajlar nutqida keng qo'llanadi hamda adib asarlarining ta'sir kuchini oshirishga xizmat qilgan. Yozuvchi ko'z o'ngida xalq tilining butun boyligi gavdalanadi. Adib bu vositalarni tanlaydi, saralaydi, tasvirga eng monand kelgan vositani ishlatadi, unga qalb qo'ri, tafakkur yolqinini

singdirib, iste'mol doirasini kengaytiradi. Binobarin, qalamkash "hayot va adabiyotdan materialni oluvchigina emas, balki o'zi ham materialni yaratuvchidir".

Umuman olganda, Oybek tomonidan qo'llangan frazeologizmlar ma'no anglatishi, qo'llanish doirasining kengligi, obrazlilik hamda ifodaliligi jihatidan ajralib turadi. Zero, "yozuvchi va publisistlar umumtildagi mavjud tayyor iboralardan unumli foydalanibgina qolmay, o'zlari ham shular zamirida ma'noning yangicha talqinini ochish, iboraning leksik tarkibini o'zgartirish, uning sematik-stilistik funksiyalarini kengaytirish, iboraga yangicha majoziy va obrazli ma'nolar kiritish kabi usullardan foydalanadilar".³⁸

Sifatlashga misollar:

Yerning har qarichi dahshatdan zir titragan, kuygan, tutoqqan tezroq odim otish kerak ("Quyosh qaraymas", 52- bet).

Bu parchadagi barcha so'zlar g'oyat san'atkorlik bilan qo'llangan jumladagi "zir titragan", "kuygan", "tutoqqan" sifatlashlariga e'tiborni qaratmoqchimiz. Bu uyushib kelgan birikmali va sodda sifatlashlar ona yerning o'sha paytdagi holatini turli tomondan xarakterlab, muqim belgilarini ifodalagan; yer zir titragan, chunki urush bo'roni dahshati hukmron bo'lgach, titrash tabiiy; yer kuygan, chunki urush ichida va ayni vaqtda u g'azabkor, qahrli.

Bunday sharoitda odamlar nima bo'ladi? "Tor uyni to'ldirgan ajal, tinch uyqu og'ushidan hammalari bir zumda, go'yo to'shakni olov qamraganday, sakrab turdilar" ("Quyosh qaraymas", 33- bet).

Jumladagi orginal o'xshatishlar urushning dahshati va fojiasini, to'shakni olov qamraganday" deya kishilarning bunday musibat girdobida qay tarzda tashvishga tushib qolganligini juda yorqin gavdalantirgan. Oybek bu iboralar zamirida real voqelikning xarakterli holatini mujassamlashtiradi. Ayni paytda iboralar tarkibidagi so'zlarni tanlab, saralab, shu vaziyatni yorqin anglatishga xizmat qildiradi. Natijada iboralar voqeadan darak berib qolmasdan, balki mushkul, murakkab, halokatli vaziyatni kitobxon ko'zi oldida xunuk manzara sifatida namoyon etadi, kitobxonni tasvirni o'qib yoki eshitib turgandek emas,

³⁸Toshxo'jayeva Sh. Iboralar- muhim lingvopoetik vosita. // Til va adabiyot ta'limi. 2008. №5.

balki o'sha vaziyatni hayajon bilan ko'rib turgandek holatga tushirib qo'yadi. Mana Oybek qalamining qudrati, mo'jizasi!

«Sen yoz, Temircham, — dedi Polvon, — men yozsam, harflar xuddi nayzadan qochgan fashistday safdan chiqib ketaveradi...» («Quyosh qoraymas», 77-bet). Mana o'xshatishning mo'jizasi! Fikrni siqiq, ixcham ifodalashga imkon berishi. «Xatim xunuk» degan oddiygina holatdan bu qadar katta mazmun, keng ko'lamli fikr ifodasiga imkon topish badiiy tafakkur qudrati, chinakam topqirlik namunasidir.

Oybek tabiat va jamiyatdagi biror hodisa yoki holatni ifodalaganda ham, qahramonning ichki dunyosi va ma'naviy takomilini yoritganda ham so'zni g'oyatda tabiiylik bilan qo'llaydi. Natijada biz asarni o'qiyotganimizni unutib, hayot hodisasi yuz berayotgan jarayonni ko'rib turgandek, jonli kishilar bilan muloqot qilib turgandek bo'lamiz. Oybek tasvirida tilimiz o'zining qudratini, keng imkoniyatini, boyligini, go'zalligini namoyon etdi, har qanday nozik tushunchani, nozik ma'noni ham ifodalashga qodir ekanligini yana bir bor ko'rsatdi. Oybek so'z mazmunini hayotiyashtirishi, so'zlashuv tilining muhim xususiyatlarini adabiy-badiiy davraga olib kirishi bilan badiiy adabiyotimiz tilining xalqchillashuvi va taraqqiyotiga juda katta hissa qo'shdi. Oybek tilining g'oyatda rangdor va aniqligi tufayli ifodalash qiyin bo'lgan har qanday murakkab holat ham uning asarlarida qo'l bilan ushlab ko'rish mumkin bo'lgan darajada tabiiy gavdalandi. Oybekning so'z davlati mana shunday keng qamrovli, keng imkoniyatli, ulug' qudratni mujassamlashtirgan xazinadir. Shuning uchun Oybek maktabi doimiy saboq va mutolaa manbai bo'lib kelayotir. Bu shoir, adib, olim va ulug' inson Oybekning abadiyati, umrboqiyligi nishonasidir.

II-BOB YUZASIDAN XULOSALAR

Badiiy adabiyotimizning yirik namoyondasi, ulug' ustoz, romannavis yozuvchi Oybekning so'z qo'llash mahorati va badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalanish san'ati kuchli va beqiyosdir.

Bu haqda tilshunos olimlar o'z ilmiy maqolalari va matbuotda chiqishlari orqali yaqqol tasvirlab bergan. Biz ushbu bob haqida quyidagi xulosalarga keldik:

1. O'zbek adabiyotining atoqli vakili Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek yirik nasr maydoniga ko'p asrlik tajriba va an'anaga ega bo'lgan she'riyat yo'lidan kirib keldi. Ilk romani "Qutlug' qon" nashr etilguncha o'quvchilar ommasiga shoir sifatida tanilgan Oybekning keyingi yillarda yaratilgan barcha nasriy asarlarida jumladan, "Quyosh qoraymas" romanida ham lirik turga xos ko'tarinkilik, yuksak shoirona kayfiyat, ehtirosli tuyg'ular to'ldirini yaqqol ko'zga tashlanadi.
2. «Quyosh qoraymas» romani bilan bog'liq ayrim detallarni eslashdan maqsad shuki, Oybek badiiy ijodga g'oyatda mas'uliyatli vazifa sifatida qaragan. Ijod jarayonida uning o'ziga xos uslubining shakllanishiga sabab bo'lgan omillardan biri ham shu deb aytsak xato qilmaymiz.
3. «Quyosh qoraymas» Ulug' Vatan urushi davrini qamraganligi uchun unda harbiy qurol-aslaha nomlari, jang jarayoniga oid atamalar salmoqli o'rinnatadi. Urush, jang, jangchi, avtomat, pulemyot, tank, okop, granata, o'q, mayor, general, qurol kabi so'zlar haqiqatanam tilda davrning «xarakteristikasi, muhim mujassamligini dalillaydi .
4. Zero, adabiyot tildan boshlanadi. Rangsiz tasvir, changsiz musiqa bo'lmaganidek, tilsiz adabiyot ham bo'lmaydi. Tilning jozibadorligi va adabiyotning rang-barangligi ham bir qator tasviriyy vositalarning ishtirokiga bog'liq. Mana shunday badiiy uslub uchun ahamiyatli bo'lgan, troplar guruhiga kiruvchi tasvir vositalarining asosiylaridan biri metofara haqida fikr yuritar ekanmiz, Oybek asarlarida ko'plab misollar uchratdik. Oybek metaforani o'z asarlarida maharot bilan foydalanganligini kuzatamiz.

III BOB.

MATN MAZMUNI VA MODALLIK KATEGORIYASI

3.1. MATN MAZMUNIDA MODALLIK KATEGORIYASI

Bugungi kunda matn mazmuniy tuzilishini tahlil etish jarayonida qo'llanilgan "Modallik" tushunchasining mohiyati tobora kengayib bormoqda. Olimlar modallikning til tizimining barcha sathlarida – fonetik, leksik-frazeologik, morfologik va matn birliklari darajasida namoyon bo'lish holatlarining sabablarini aniqlashga harakat qilishmoqda.

Modallik kategoriyasi namoyon bo'lishida bu qadar keng imkoniyatlarning mavjudligi, so'zsiz, ushbu kategoriyaning umumlisoniy hodisa ekanligidan va uning o'rganilishi til qurilishining mohiyatini anglash uchun g'oyat muhimligidan dalolat beradi. Umumlisoniylik xarakteriga ega bo'lgan modallik kategoriyasining tilning har bir sathida voqelanishi til tizimi birliklarining keng imkoniyatlarga ega ekanligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, nutqiy faoliyat shaxslararo muloqotni yuzaga keltiradi va bu muloqot muhitida so'zlovchi shaxsning o'zligi, uning voqelikka munosabati namoyon bo'ladi. Kishilar o'rtasidagi muloqot shakli, ya'ni "dialogda subyektlarning o'zaro tushunishi va bilishi shakllanib, bu jarayonda o'zlarining dunyoqarashlarini yaratadilar". Muloqot faoliyatida lisoniy axborot so'zlovchi shaxsi bilan o'zaro singgishib, nutqiy tuzilma mundarijasiga modallik mazmunini baxsh etadi.

Modallik hodisasiga xos u yoki bu jihatlarining izchil, muntazam muhokama qilinib kelinayotganligining o'zi ham til zahirasida ushbu hodisaga xos mazmunni shakllantiruvchi imkoniyatlarning tabiatan mavjudligidan hamda bu imkoniyatlarning nutqiy faoliyatda aktuallashuvi mazmun ifodasining talabi ekanligidan dalolatdir.

Modallik kategoriyasiga mantiq fanida berilgan tavsiflar ushbu hodisaning lingvistik talqiniga ham o'z ta'sirini o'tkazishi tabiiy. Chunki mantiqiy va lisoniy faoliyatlarning biri ikkinchisini taqozo etishi tabiiy. Haqiqatdan ham "modallikning lisoniy kategoriya sifatidagi tavsifi uning mantiqiy kategoriya holatidagi va unga xos bo'lgan tafakkur shakli, ya'ni hukm chiqarish uslubi bilan bog'liq"³⁹.

Lisoniy modallikni uning mantiqdagi tavsifiga muqoyasa qilishga uringan tilshunoslardan biri Sh.Balli edi. Uning ta'rificha, har qanday gap fikrning ifodasidir va bu fikr voqelikning oddiy tavsifi bo'lib qolmasdan, fikr yuritayotgan shaxsning faol ishtiroki natijasi hamdir. Fikrlovchi subyekt voqelik tavsifiga o'z munosabatini bildiradi, ushbu voqelikning mavjudligini qayd etadi, unga baho beradi. Boshqacha aytganda, fikr yuritish voqelik va uning qiymatini baholash harakatlarini qamrab oladi. Fikrlovchi shaxs tomonidan bajarilayotgan bu turdagi psixik amallar nutqiy tuzilmalarga fikrlovchi shaxs tomonidan bajarilayotgan bu turdagi psixik amallar nutqiy tuzilmalarga mantiqiy shakl beradi. Natijada, har qanday gap ikki qismdan iborat bo'ladi. Ularning birinchisi voqelik haqidagi tasavvur, uning tavsifiy qaydidan iborat bo'lsa, ikkinchi qism fikrlovchi shaxs bajarayotgan amallarning aks etishi bo'lib, u ifodalanayotgan axborotning modal qismini tashkil qiladi.

Rus tilshunosligida modallikni keng miqyosidagi semantik- sintaktik hodisa sifatida birinchilardan bo'lib V.V.Vinogradov tavsiflagan edi. Sintaktik birliklarning mundarijaviy belgilari haqida so'z yuritib, u quyidagi fikrni bildiradi: Har qanday gap muhim konstruktiv ko'rsatkichga- modallik mazmuniga ega, ya'ni

³⁹ Боймирзаева С. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар. Фил.фан.докт. илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. – Тошкент. – 2010. 74-б.

uning mazmunida voqelikka munosabat ishorasi mavjud. Fikr, hissiyot undovning yaxlit ko'rinishdagi ifodasi voqelikni u yoki bu turdagi lisoniy tuzilma shaklida ifodalash jarayonida til tizimida mavjud bo'lgan intonatsiya turlaridan birining shaklini oladi hamda ma'lum bir sintaktik ma'noni ifodalaydi. Ushbu ifoda vositalarining umumlashmasi modallik kategoriyasini tarkib toptiradi.

Tadqiqotchilarning fikricha, "Modallik ostida gapning subyekt bilan bog'liq bo'lgan turli ma'nolari tushunilar ekan, avvalo, bu ma'nolarni ikki guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir. 1) obyektiv modallik, 2) subyektiv modallik. Ularning birinchisi bilish akti yo'naltirilgan ma'lum bir voqeadagi mavjud obyektiv aloqalar xarakterini aks ettiradi. Ikkinchisi esa bu aloqalarni bilish darajasiga so'zlovchining munosabati (bahosi)ni ifodalaydi"⁴⁰.

Obyektiv va subyektiv modallikning yagona bir maydonda uchrashuvi, kesishishi muqarrarligini inkor qilib bo'lmaydi. Chunki turli lisoniy birliklar vositasida ifodalanadigan subyektiv modallik nutqiy tuzilmalarning asosiy modal ma'nosini o'zgartirmasdan, unga qo'shimcha mazmun baxsh etadi.

Ushbu talqindan ma'lum bo'ladiki, subyektiv modallik asosan so'zlovchining berilayotgan xabarga ishonchini ifodalaydi. Obyektiv va subyektiv modallik yagona bir kategoriyaning bir-birini taqozo etuvchi ikki qirrasidir. Ular o'zaro munosabatda bo'ladi, lekin bir nuqtada kesishmaydi, chunki nutqiy tuzilmalarning har qanday strukturaviy yangilanish holatlarida ham obyektiv modallik ma'nosi saqlanib qoladi. Obyektiv modallik gapni shakllantiruvchi zaruriy belgilardan biri, asosiy uzvi hisoblansa, subyektiv modallik obyektiv modallik ustiga qo'yilgan qo'shimcha modallikdir.

Modallikning har ikkala turida ham ifodalanayotgan mazmun gapning sintaktik qurilishidan tashqi omillar (real voqelik, subyektiv munosabat) doirasida aniqlanadi. Bu turdagi modallik nutqiy tuzilma, jumladan, matnning yaxlit tuzilishiga xos bo'lib, ushbu tuzilmalar kommunikativ-pragmatik mazmunning muhim qatlamini hosil qiladi. So'zlovchi shaxs voqelik bayoniga doimo o'z

⁴⁰ Ёкубов Ж.А. Лингвистикада модаллик категорияси // Филология масалалари. – Тошкент. 2003. -№ 3-4. –Б.54-56.

muloqot maqsadi nuqtai nazaridan yondashadi yoki, boshqacha aytganda, konseptual tasvirni pragmatik mazmun bilan boyitadi. Shu sababli bo'lsa kerakki, modallikka gap propozitsiyasi atrofida bajariladigan qator lisoniy amallar natijasida hosil bo'ladigan mazmun sifatida qarayotgan tilshunoslar ushbu amallarning natijaviy bosqichida semantik tuzilmani kommunikatsiya jarayoniga kiritish amali bajarilishini ta'kidlaydilar.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, modallik hodisasi keng qamrovli talqinga loyiq hamda u so'zlovchining nutqiy harakatni real yoki noreal, zaruriyatli, ishonchli, tasdiq yoki inkor, taxmin ma'nolari nuqtai nazaridan baholashida namoyon bo'ladi. So'zlovchining ma'lum qilinayotgan axborotga nisbatan barcha turdagi munosabatlari, tilda umumlisoniy kategoriya bo'lgan modallik maydonida o'z aksini qoldiradi. Shu sababli modallik hodisasini tor ko'rinishda tavsiflash, uni turli qolipga ega bo'lgan gaplar grammatik "qafasi" ga qamab qo'yish ushbu hodisaning mohiyatini chegaralab qo'yishdan boshqa narsa emas.

Modallikning umumlisoniy kategoriya ekanligini unga xos ma'no-mazmunning grammatika hududidan chiqib, muloqot birliklari tarkibida namoyon bo'lishida ham ko'rish mumkin. Demak, lisoniy faoliyatda "so'zlovchi shaxs faktori" muhim rol o'ynashini e'tirof etadigan bo'lsak, modal munosabatlarning ifodalanishini so'zlovchining yaxlit kommunikativ birlik matn mazmuniga bo'lgan munosabatidan izlash lozim bo'ladi. Xuddi shuningdek, matn mazmunining voqelikka bo'lgan munosabati ham so'zlovchining ushbu voqelikni idrok etishi jarayonida tug'iladigan individual munosabatidir. Modallik uzatilayotgan axborotga mazmun bag'ishlaydi, bajarilayotgan kommunikativ harakatning ta'sir kuchini oshiradi, shu sababli nutqiy tuzilmaning modallik maydoni miqyosini belgilashda kommunikatsiyaning faol ishtirokchisi- adresantning voqelikka va uning tasviriga bo'lgan munosabati ham o'z o'rnini topishini unutmaslik kerak.

Ma'lumotlardan anglashiladiki, modallik hodisasini qat'iy tarzda grammatik yoki sintaktik kategoriyalar qatoriga kiritishning imkoni yo'q. Modallikning grammatik kategoriyalarning tasnifiy va funksional- sintaktik guruhlaridan o'rin

olmasligi ko'pchilik tilshunoslar tomonidan qayd etilgan. Zero, modallik hodisasi til tizimining turli sathlarida kuzatiladi. Modallik mazmunini ifodalovchi vositalar ham turli ko'rinishga ega. Ushbu hodisaning mundariyasi uning umumlisoniy kategoriya ekanligidan dalolat bersa, mohiyati esa yaxlit kommunikativ birlik-matn tarkibida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham matn kommunikativ-pragmatik mazmunida modallik semantikasining ifoda topish holatlarini batafsil o'rganishga ehtiyoj tug'iladi.

Modallik- kommunikativ mazmundagi hodisa, u matnning bevosita muloqot jarayonida yuzaga kelish tabiati bilan bog'liq. I.R.Galperin ta'kidlaganidek, "modallik harakatdagi tilga, ya'ni nutqqa xos kategoriya va shu sababli u kommunikativ jarayonning asosidir"⁴¹.

Darhaqiqat, so'zlovchi yoki yozuvchi voqelik haqida fikr yuritayotganda, unga o'z munosabatini bildiradi. Binobarin, bunda voqelikning real yoki tasavvur qilinayotganligi haqidagi hukm bilan bir qatorda, fikrning rost yoki yolg'onligi, uning istak va imkoniyat bilan bog'liqligi kabi hukmlar ham muhim. Aynan shu turdagi hukm va mulohazalar nutqiy faoliyatning mazmundor kechishini ta'minlab, matnning "axborot uzatuvchi" vosita sifatida xizmat qilishiga imkon yaratadi.

Demak, modallik kategoriyasining mazmuni, mohiyati nutqiy tafakkur faoliyati jarayonida shakllanadi va ma'lum matnda, muloqot vaziyatida voqelanadi. Badiiy matn uchun murakkab xarakterli modallik xos. Zero, badiiy asar muallifi tasvirlanayotgan voqea-hodisalarga nisbatan o'z shaxsiy munosabatini bildiradi. Bu munosabatni, o'z navbatida, oddiy bayon qilmaydi, u muallif o'quvchiga tez va kuchli ta'sir o'tkazadigan lisoniy vositalarni tanlab ishlatadi. Vositalar tanlovi oddiy kechmaydi, chunki muallif o'quvchining matnda bayon qilinayotgan axborotni voqelik bilan taqqoslashi va unga o'z bahosini berishini inobatga olishi lozim. Axborotni qabul qiluvchining bunday qobiliyati e'tiborga olingan taqdirdagina matnning pragmatik ta'siri ko'zlangan darajada bo'ladi.

⁴¹ Гальперин И.Р. Текст как объект лингвистического исследования. – М.: Наука, 1981. -140с.

Shunday qilib, modallik matnning o'ziga xos mazmuniy xususiyatlaridan biri bo'lib, uning voqelanishi muloqot jarayonining muhim talabidir. Matn tahlilida modallik kategoriyasiga tayanish uslubning kommunikativ maqsad jihatidan tadqiq qilinishiga yangicha ko'rinish berishiga ishonchimiz komil.

Ko'rinib turibdiki, modallik ma'nosi obyektiv borliqning ongda aks etishigina emas, balki so'zlovchining shu borliqqa munosabati hamdir. Yuqorida aytganimizdek, so'zlovchining voqelikka munosabati nutqiy tafakkur faoliyatida yuzaga keladi hamda bu munosabat diskurs- matn yaratilishi jarayonida voqelanadi. Demak, modallik diskursiv yoki muloqot matnida shakllanadigan mazmuniy hodisa. Lison esa bunda faqat ifoda vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yana shuni aytish joizki, modallik ma'nosini ifodalovchi vositalar faqat til tizimi birliklari, lisoniy shakllar bo'lib qolmasdan, bu ma'no matn mundarijasidagi barcha turdagi lisoniy va nolisoniy vositalar ishtirokida ifodalanadi. Ayrim hollarda hatto nolisoniy birliklarning ulushi ko'proq bo'lishi ham mumkin. Buni, ayniqsa, muloqot matnida faollashadigan sotsial deysis kategoriyasi ta'sirida yaqqol ko'ramiz.

Modallikning grammatik kategoriya emas, balki kommunikatsiya jarayoniga xos bo'lgan hodisa ekanligi matn kommunikativ mazmunini belgilovchi xususiyatlarda yaqqol ko'rinadi. Ma'lumki, voqelik bo'lagining idroki natijasida inson ongida ushbu parcha haqida tug'iladigan tasavvur voqelikning oddiy, "ko'zgudagi aksi" emas. Konseptual bosqich (konseptning yuzaga kelishi va lisoniy voqelanishga tayyorgarlik) borliqdagi predmet hodisani o'zlashtirish yo'lidagi dastlabki qadam bo'lsa, keying bosqichda "ushbu predmetni inson moddiy faoliyati doirasida qo'llash bilan bog'liq harakatlar sxemasi yuzaga keladi".

Bu harakat sxemasi voqelik parchasi haqidagi tushuncha- konseptning lisoniy voqelanishini taqozo etadi. Xuddi shu jarayonda borliq haqidagi tushuncha va lisoniy ma'noning muvofiqlashuvi yuzaga keladi. Ushbu muvofiqlashuvda, o'z navbatida, borliqdagi obyekt va u haqida berilayotgan ma'lumotning haqiqatga mos kelish-kelmasligi e'tiborga olinadi. Natijada, hosil bo'lgan konseptning real

yoki norealligi, haqiqat yoki mavhumligini bilish istagi tug'iladi. Bu istak muloqotning kechishi, uning mahsuli bo'lgan matnning kommunikativ mazmunini tushunish maqsadi bilan qorishib ketadi.

Shunday qilib, matn modallik maydoni ko'p pog'onali tizim sifatida tarkib topadi. Uning subyektiv qismi matn faoliyati subyektlarining ifodalanayotgan mazmunga, boshqacha aytadigan bo'lsak, matnning kognitiv bo'laklariga muallifning bildirayotgan munosabatini aks ettiradi. Shu sababli subyektiv modallik mazmunining asosida muallif intensiyasi turadi, zero, matn yaratayotgan shaxs o'zgaralar tafakkuriga, ularning his-tuyg'ulariga ta'sir o'tkazish maqsadini ko'zlaydi. Bu maqsadlarning voqelanishi, o'z navbatida, emotiv, deontik (buyurish), epistemik (tavsiflash), aksiologik (baholash) modalliklarni yuzaga keltiradi. Bunday holatlar badiiy matnlarda muallif mahoratining bir ko'rinishi sifatida qo'llaniladi.

3.2. EMOTIV, EPISTEMIK, DEONTIK VA AKSIOLOGIK MODALLIKLAR

Biz Oybekning "Quyosh qoraymas" romanidan modallik kategoriyasiga misollar tanladik va ularning mazmuniy xosligiga alohida e'tibor qaratdik.

Modallik kategoriyalari ichida badiiylikni tashkil etuvchi va badiiy matnlarda ko'plab uchraydiganlaridan **emotiv** (his-tuyg'u, epitet va o'xshatish), **epistemik** (tavsiflash, ta'riflash, baholash), **deontik** (zarur, shart, buyurish) va **aksiologik** (baholash ya'ni ijobiy va salbiy baholash) kabi kategoriyalarga misollar keltiramiz.

Muloqotga kirishayotgan shaxs tinglovchiga axborotni «yalang'och» yoki faktual axborot holida yetkazsa, pragmatik maqsadga erishish ancha qiyinlashadi. Muloqot pragmatikasining asosiy maqsadlaridan biri tinglovchining ruhiyatiga ta'sir o'tkazish va uning hissiy holatini o'zgartirishdir. Shu sababli emotsional ta'sir o'tkazish pragmatik mo'ljalli matnning yaratilishida, lisoniy birliklar tanlovida muhim omil sanaladi. Bu omil o'z «kuchi»ni, ayniqsa, badiiy matnda yaqqol namoyon qiladi, zero, badiiy kommunikatsiya jarayonida estetik faoliyat

vujudga keladi hamda muallifning estetik faoliyati adresatning hamkorligisiz amalga oshmaydi .

Estetik faoliyat nutq subyekti, ya'ni matn muallifi emotiv ta'sir mo'ljalining aktuallashuvi natijasidir. Shunday faoliyat natijasida matn mazmunining subyektiv modallik qatlamlari shakllanadi. Qayd etish joizki, emotiv ta'sir mo'ljali matn tarkibida ma'lum bir tizim sifatida namoyon bo'ladi va bu tizimga matn kompozitsiyasi qurilishiga oid bo'lgan hamda badiiy obraz yaratish, estetik baho berish maqsadini ko'zlab tanlangan barcha turdagi lisoniy birliklar kiradi. Bundan tashqari, emotiv mazmundagi modallikning o'zi ham serqirra hodisa bo'lib, u bir necha pog'onali kognitiv-lisoniy faoliyat jarayonida shakllanib boradi. Ushbu faoliyatning dastlabki bosqichida hissiy amallar bajarilib, emotsiyaning mo'ljalli voqelanishi uchun zamin yaratiladi.

Matnda emotiv modallikning ifodalanishi turli ko'rinishdagi va turli guruhlariga oid birliklarning qo'llanishi bilan bog'liq. Emotiv holat predikatlari va otlari vositasida ifodalanayotgan hissiy tuyg'ular muvaqqat holat bo'lib, ular ma'lum bir davr oralig'ida vujudga keladi. Bunday turdagi emotiv holatlar bilvosita tasviriy tuzilmalar (epitet, o'xshatishlar)ning qo'llanishida ham o'z ifodasini topadi. Masalan, quyidagi o'xshatishli, epitetli birikmalarga e'tibor qilaylik: Go'riston to'g'risida dodxo nimalar eshitgan bo'lsa, Unsin ham shuni eshitgan, shamol kechasi go'riston dodxo xayolida qanday dahshatli bo'lsa, uning xayolida ham shunday dahshatli, lekin shunday bo'lsa ham, tiriklar go'ristoni bo'lgan bu dargohning dahshati oldida o'liklar go'ristonining dahshati unga dahshat ko'rinmas, bundan tashqari, ertagayoq Ganjiravonga jo'nash, ota-onasini, dugonalarini ko'rish umidi uning boshiga boshqa hech qanday fikr-xayolni yo'latmas edi (A.Qahhor, «Dahshat»); Darhaqiqat, matnda tavsifiy birliklar (epitet, o'xshatish) yagona birmaydonga birikib, yetakchi (dominant) ma'no kasb etadi va shu yo'sinda emotiv modallik mazmuni ifodalanadi. Lekin ushbu birliklarning sinonimligi faqat shu matn uchungina xos bo'lib, til tizimida o'z aksini topmasligi mumkin. Shu sababli ifoda vositalarining bunday yetakchi mazmun atrofida guruhlanishini asar muallifining shaxsiy mo'ljalini voqelantiruvchi psixologik

sinonimlar sifatida qarash mumkin. Lekin lisoniy vositalarning matnda bu taxlit faollashuvi faqatgina psixologik ahamiyatga ega emas. Zero, yozuvchi o'zi ko'rayotgan voqelikni ko'rsata olishi uchun so'zdan foydalana olishi lozim. M.Mirtojiyev va N.Mahmudovlar tili bilan aytadigan bo'lsak, «yozuvchi faoliyatida hal qiluvchi ijodiy jarayon - ko'rish va ko'rsatish - benihoya murakkab, so'z va ko'z dialektikasidan iborat jarayondir».

Emotiv modallik mo'ljali matn kommunikativ-pragmatik mazmuni maydonining barcha hududlarini qamrab oladi. Bu esa inson emotiv va kognitiv faoliyatining uzviyligidan dalolat beradi. Matn mazmunining kognitiv qatlami insondagi hissiyotning voqelikka baho bera olish vazifasining, qobiliyatining faollashuvi bilan uyg'un tarzda shakllanadi. Zotan, hissiyot ifodasida insonning voqelikka bo'lgan munosabati yetakchi o'ringa chiqadi. Shunga ko'ra, matn semantik maydonlarining modallashuvi muloqot sub'ektlariga xos shaxsiy kognitiv tizimlarning faollashuvi bo'lib, ushbu faollashuv natijasida lisoniy birliklar tanlovi hosil bo'ladi. *Masalan: Qorong'u tushdi. Jahannamga aylangan jang tingandan so'ng, tilka-pora bo'lgan yer ham, dud bosgan osmon ham, go'yo horg'in, ma'yus nafas olardi. (Q.q. 8- bet).*

Bu metaforik o'xshatish emotiv modallik mazmuniga ega bo'lib, jangdan keying holat tasvirlangan va bir tomondan jang maydonini jahannamga o'xshatgan bo'lsa, ikkinchi tomondan "go'yo" leksik ma'noli so'z orqali yerni horg'in va ma'yusligini tasvirlagan.

- *Choyxonasiz joy yengsiz choponday xunuk...- dedi Ali tajang va muyulishda turgan o'n-o'n bir yashar bolaga yugurdi. (Q.q. 25-bet).*

Bu misolda yengsiz choponday birikmasi orqali insondagi hissiyotining voqelikka baho bera olish vazifasi va munosabatini o'xshatishning – day grammatik qo'shimchasi yordamida emotiv modallikni ifodalagan.

Yoki: Hoshimjon buloqday qaynagan ko'z yoshlari bilan chuqur qazishga kirishgan edi. (Q.q. 52- bet).

Ushbu misolda ko'rinib turibdiki his-tuyg'u orqali ifodalangan grammatik ko'rsatgichli o'xshatish emotiv modallikni yuzaga keltirgan.

Yana bir misol: Yomg'ir xuddi jonga igna sanchiganday ezib, muttasil savalardi. (Q.q. 8- bet).

Bu misolda ham “xuddi” leksik o'xshatish va sanchiganday grammatik ko'rsatgichlar orqali voqelikka baho berish va emotivlik munosabati ifodalangan.

Xullas, emotiv modallik mo'ljali matn kommunikativ-pragmatik mazmuni maydonining qamrab oladi va inson qobiliyatining faolligi bilan uyg'un tarzda shakllanadi.

Epistemik modallik- so'zlovchi biror bir axborotni tinglovchiga ma'lum qilish jarayonida ushbu axborotning voqelikka qay darajada mos kelishi yoki uning qanchalik haqiqat ekanligini belgilab boradi. Voqelik haqidagi bilimning to'liq va ishonchli ekanligini bu tarzda baholash epistemik yoki ishonchlilik xarakteridagi modallik mazmunini hosil qiladi.

Epistemik modallik asosida axborotning ishonchli yoki ishonchsizligini belgilovchi holat yotadi. Demak, epistemik baho voqelik haqidagi bilimning turli darajada bo'lishi va ushbu bilimning haqiqatga qay darajada yaqinligini ko'rsatadi. Shunga binoan haqiqatning darajasini va axborot aniqligiga ishonchning turlichako'rinishini ajratish ehtiyoji tug'iladi. Avstriyalik tilshunos Marion Krauze epistemik modallikning lug'aviy va prosodik ko'rsatkichlari haqida gapirib, «to'liq ishonaman», «qariyb ishonaman», «yaxshisi, ishonaman», «yaxshisi, ishonmayman», «ishonmayman» ma'nolarini farqlashni taklif qilgan edi.

Demak, biz Oybekning “Quyosh qoraymas” romanidan epistemik modalikka misollar keltiramiz: ***Masalan: Agar shu daraxtlarning mingdan biri olma, nok bo'lsami, Rusiyaning yeri jannat bo'lardi,- dedi Asqar polvon. (Q.q. 22- bet).***

Ishonch bilan aytilgan ushbu gapda tavsiflashni metaforik o'xshatish orqali ifodalagan va epistemik modallik voqea haqidagi bilim va tushunchalarni qay darajada ekanligi bilan tasvirlangan.

Yoki: Oviga erisha olmay, g'azab o'ti purkab o'z o'tida o'zi kuygan ajdaholardek tanklar yonardi. (Q.q. 10- bet).

Bu misolda to'liq o'xshatishlar orqali urush manzaralar yaqqol chizib berilgan va "ishonaman" ma'nosida epistemik modallikka moyil axborot aniqligi tasvirlangan.

O'rmonning borgan sari chuqurlashgan azamat sukunati ularning ruhini yupatardi. (Q.q. 21- bet).

Bu misolda "Azamat sukunati" birikmasi orqali metaforik o'xshatish hosil bo'lgan va tavsiflash natijasida epistemik modallik vujudga kelgan.

Yoki: Qo'yaver, Jo'ldas, - dedi Bektemir: unga achinganini bildirmaslikka tirishib, - eson qaytsang, g'unchang ochilib hidga, husnga to'lishib qarshingga chiqadi. (24- bet).

Bu misolda "g'unchang ochilib, hidga, husnga to'lishib" so'z birikmasi orqali uning sevimli yorini tasvirlagan. Bu metaforik o'xshatish tasvirlash orqali epistemik modallik ya'ni ishontirishga, ruhini ko'tarishga yo'naltirilgan.

Deontik modallik - matn modallik maydoni voqelikka va ma'lum qilinayotgan axborotga bo'lgan subyektiv munosabatlarning ko'pqatlamli tuzilmasidan tarkib topadi. Bu qatlamlar, o'z navbatida, semantik kategoriyalarni hosil qilib, muloqot muhitida turli kommunikativ niyatlarni ko'zlaydigan pragmatik mo'ljallarni rejalashtirish uchun asos bo'ladi. Shu jumladan, deontik modallik mo'ljali ham istak, mumkinlik, zaruriyat singari semantik kategoriyalarga asoslanadi.

Subyektiv modallik tarkibini hosil qiluvchi istak, mumkinlik va zaruriyat kabi semantik kategoriyalar matn doirasida namoyon bo'ladi. Biz quyida ushbu kategoriyalarning matn deontik modallik maydonida namoyon bo'ladigan ayrim xususiyatlari haqida to'xtalamiz.

Deontik (yunoncha: «shart», «zarur») modallik so'zlovchining xohish-istagi va harakatni bajarish zaruriyligining ifodalanishini aks ettiradi.

Matnda deontik modallik muallif va retsipientning voqelikning matn mazmunida aks etishi doirasida hosil bo'ladigan munosabati natijasidir.

Ma'lumki, ushbu munosabat muloqot intensiyasini (maqsadini) rejalashtirish uchun asos bo'ladi. Intensiya bevosita muallifning istagi bo'lishi bilan bir qatorda

(Sen yig'ilishda albatta ishtirok etishing kerak), boshqalar xohishining ma'lum qilinishi bo'lishi ham mumkin (Sening yig'ilishda ishtirok etishing talab qilinadi). Bunda u asosli xohish-istakni lisoniy voqelanishni aks ettiradi va bu asos natijasida shart va zarur ekanligini ifodalaydi. ***Masalan: Tanklar ko'zdan g'oyib bo'lishi bilan ufqni yana qora qushlar galasi tutdi. Bir pasda qora girdob kabi tepaga aylandi. (Q.q. 16- bet).***

Bu misolda “qora qushlar”, “qora girdob” kabi metaforik o'xshatishlar orqali urush manzaralarini asosli chizib bergan va shunday bo'lishi shart ekanligi deontik modallikda o'z ifodasini topgan.

Yana: - Generallarimizga ayt ukacham!- dedi Dubov va so'kinib qo'ydi.- sen bilan mening qo'lim qisqa. Lekin kerak vaqtda biz o'z ishimizni durust bajaramiz. Biz mustaqil harakat qilsak, bironta vzvodni xippa bo'g'a olamiz. (Q.q. 59- bet).

Yuqorida belgilangan gaplar bevosita kechayotgan hodisalar haqidagi axborot aniq faktlarga asoslanadi va ushbu axborot hamisha lisoniy voqelanadi.

Yoki: - Yana ham nazoratni kuchaytirish kerak, - dedi general barmoqlari bilan stolni chertib. Orqamizda Moskva! Poytaxtning darvozaboni biz har bir jangchi o'rni, quroli, har bir o't nuqtasi, har bir kirish har bir chiqish yo'llarini qunt bilan sinchiklab tekshiring. (Q.q. 54 bet)

Misolda muallif voqelikni matn mazmunida aks ettirishi bilan buyurish, shart va zarur ekanligini “nazoratni kuchaytirish kerak”, “qunt bilan sinchiklab tekshiring” kabi jumlalarda tasvirlagan va maqsadni shart va zarur ekanligini asoslab bergan.

Umuman, xohish-istak, mumkin, zaruriyat semantik kategoriyalari negizida hosil bo'luvchi deontik modallik maydonida so'zlovchining mavqei ustuvor. U, birinchidan, berilayotgan ko'rsatma, ifodalanayotgan istaklarning bajarilishidan manfaatdor bo'lsa, ikkinchidan, rejalashtirilayotgan pragmatik mo'ljalning tashabbuskoridir.

«Aksiologik modallikning matnda voqelanishi»da baholash faoliyatining matn mazmuniga ta'siri o'rganiladi. Bahoning ijobiy, salbiy va betaraf turlari farqlanib, ularning matn subyektiv modallik maydonida tutgan o'rinlari aniqlanadi.

Baholash voqelikni idrok etishning muhim bosqichidir. U voqelikdagi predmetlar, hodisalar haqida mantiqiy tushuncha - konseptning yaratilish jarayonida faollashadigan nutqiy-mantiqiy harakatdir va shu harakat nihoyasida tug'iladigan mazmundir. Mantiqshunoslar baholash harakatini hissiy (baholovchining subyektiv hissiyoti, idrokiga asoslangan), me'yoriy (ma'lum namuna, nusxa, qolipga asoslangan) va amaliy-utilitar (biror manfaatni ko'zlab berilayotgan baho) kabi turlarga ajratadilar. Shuningdek, tilshunoslar bahoning emotsional va ratsional (oqilona, aql-idrokka asoslangan) turlari ham mavjud, deb hisoblashadi. Zero, «nutq jarayonidagi his-tuyg'ulari va ichki kechinmasi shaxsning xususiy munosabati sifatida shakllanadi... Xususiy emotsional munosabat, albatta, matn muallifining ruhiy holatidan kelib chiqadi va bevosita matn mazmunidan anglashilib turadi».

Emotsional bahoni bilish obyektining inson ongidagi tasvirining ilk bosqichi bilan bog'laydilar. Natijada, emotsiya bahoning mantiqdan oldingi, oqilona idrokka zamin tayyorlovchi ko'rinishi sifatida qaraladi, «zero, insonning har bir faoliyati uning hissiyotlari orqali amalga oshadi».

Aksiologik modallik - yaxlit matn maydonida vujudga keladigan baholash hodisasidir.

Ma'lumki, lison voqelik, uning turlarining inson tomonidan idrok etilishining mantiqiy-shakliy ifodasidir. Shu sababli lisonda dastlabki o'rinda insonning borliqqa munosabati o'z ifodasini topadi. Lison borliq va uni bilishga intilayotgan shaxsning munosabatini shakllantiruvchi vositadir. Bunday bilish jarayonida atrof-muhitdagi narsa va voqealar bilish obyektiga aylanadi hamda ushbu obyektlarga nisbatan sifat va miqdor bahosi beriladi. Demak, voqelikni bilish jarayonida inson bajaradigan lisoniy tafakkur faoliyati idrok etish va aksiologik faoliyat juftligidan iborat.

Misollarga murojaat etaylik: *U sovuqdan ijirg'anib ko'zlarini ochganda daraxtlar ustiga quloq tuman suzardi. Butun gavda zirqirab og'riydi; o't to'shak ho'l. ochlikdan ichaklari uzilayotgandek sezilardi. (Q.q. 58-b).*

Aksiologik modallikda voqea –hodisani kuzatib, idrok etib baholar ekanmiz salbiy va dahshatli manzara, ko'z o'ngimizda “tuman suzar” metafora va “ichaklari uzilayotgandek” kabi o'xshatishlar orqali gavdalanadi va salbiy bahoga misol bo'la oladi.

Yoki: Tanklar va artilleriya yordami bilan Nikulin atakaga o'tib, dushmanni uzoqqa surib tashladi. Dubov qo'li bilan olisdan Bektemirni imladi. U boshini egib cho'qqayib o'tirardi. Bektemir Asqar polvonning chavaqlangan gavdasini asta quchdi. Uning yuzi tanib bo'lmas darajada majaqlangan edi. (Q.q. 118- bet).

Bu misolda achinarli manzara tasvirlangan. Matn voqelanishini salbiy baholash mumkin. Bu hissiy idrok etish, voqea-hodisalar rivojida shakllangan va aksiologik modallik tasvirlangan.

III- BOB YUZASIDAN XULOSALAR

Ishning uchinchi bobida matn mazmunida modallik kategoriyasi haqida fikr yuritilgan va quyidagi xulosalarga to'xtaldik:

1. Modallik kategoriyasi namoyon bo'lishida keng imkoniyatlarning mavjudligi, so'zsiz, ushbu kategoriyaning umumlisoniy hodisa ekanligidan va uning o'rganilishi til qurilishining mohiyatini anglash uchun g'oyat muhimligidan dalolat beradi. Umumlisoniylik xarakteriga ega bo'lgan modallik kategoriyasining tilning har bir sathida voqelanishi til tizimi birliklarining keng imkoniyatlarga ega ekanligidan dalolat beradi.
2. Obyektiv va subyektiv modallikning yagona bir maydonda uchrashuvi, kesishishi muqarrarligini inkor qilib bo'lmaydi. Chunki turli lisoniy birliklar vositasida ifodalanadigan subyektiv modallik nutqiy tuzilmalarning asosiy modal ma'nosini o'zgartirmasdan, unga qo'shimcha mazmun baxsh etadi.
3. Shunday qilib, modallik matnning o'ziga xos mazmuniy xususiyatlaridan biri bo'lib, uning voqelanishi muloqot jarayonining muhim talabidir. Matn tahlilida modallik kategoriyasiga tayanish uslubning kommunikativ maqsad jihatidan tadqiq qilinishiga yangicha ko'rinish berishiga ishonchimiz komil.

4. Modallik kategoriyalari ichida badiiylilikni tashkil etuvchi va badiiy matnlarda ko'plab uchraydiganlaridan **emotiv** (his-tuyg'u, epitet va o'xshatish), **epistemik** (tavsiflash, ta'riflash, baholash), **deontik** (zarur, shart, buyurish) va **aksiologik** (baholash ya'ni ijobiy va salbiy baholash) kabi kategoriyalarga misollar keltirilgan va tahlil qilingan.

UMUMIY XULOSALAR

1. Matnning tizimiyligi uning konstruktiv (qurilmalik) xususiyatlarida namoyon bo'ladi va bu xususiyatlarni uning mazmuniy hamda tarkibiy yaxlitligidan izlash lozim. Matn qismlarining mazmuniy va sintaktik tartibotida tafakkur jarayonini ta'minlovchi fikr va g'oyalarning ketma-ketligi o'z ifodasini topadi.

Matn mazmunini tarkib toptiruvchi qonuniyatlar ham lisoniy tafakkurda hosil bo'luvchi «bog'lam»lar bilan moslashadi. Bunday bog'lamlar umumiylik-xususiylik, sabab-oqibat, yaxlit-qism munosabatlarini aks ettirishdan tashqari, davriy ketma- ketlik, yagona zamon va makonda sodir bo'lish kabi tavsifiy-mantiqiy ko'rsatkichlarga ham ega bo'ladi.

3. O'zbek adabiyotining atoqli vakili Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek yirik nasr maydoniga ko'p asrlik tajriba va an'anaga ega bo'lgan she'riyat yo'lidan kirib keldi. Ilk romani "Qutlug' qon" nashr etilguncha o'quvchilar ommasiga shoir sifatida tanilgan Oybekning keyingi yillarda yaratilgan barcha nasriy asarlarida jumladan, "Quyosh qoraymas" romanida ham lirik turga xos ko'tarinkilik, yuksak shoirona kayfiyat, ehtirosli tuyg'ular to'ldirishni yaqqol ko'zga tashlanadi.
4. Biz ushbu ishda Oybekning "Quyosh qoraymas" romanini tahlil qilar ekanmiz, avvalo, adib tomonidan estetik g'oyaning shakllantirilishi uslubini aniqladik. Oybekning so'z qo'llash mahorati til tizimining asosiy mohiyati bo'lmish uning kommunikatsiya vositasini bajarish jarayonida namoyon bo'ladigan atash va

ekspressivlikni ifodalash vazifalarining uyg'unligida namoyon bo'lishini guvohi bo'ldik. «Quyosh qoraymas» romani bilan bog'liq ayrim detallarni eslashdan maqsad shuki, Oybek badiiy ijodga g'oyatda mas'uliyatli vazifa sifatida qaragan. Ijod jarayonida uning o'ziga xos uslubining shakllanishiga sabab bo'lgan omillardan biri ham shu deb aytsak xato qilmaymiz.

5. «Quyosh qoraymas» Ulug' Vatan urushi davrini qamraganligi uchun unda harbiy qurol-aslaha nomlari, jang jarayoniga oid atamalar salmoqli o'rin tutadi. Urush, jang, jangchi, avtomat, pulemyot, tank, okop, granata, o'q, mayor, general, qurol kabi so'zlar haqiqatanam tilda davrning «xarakteristikasi, muhim mujassamligini dalillaydi .
6. Zero, adabiyot tildan boshlanadi. Rangsiz tasvir, changsiz musiqa bo'lmaganidek, tilsiz adabiyot ham bo'lmaydi. Tilning jozibadorligi va adabiyotning rang-barangligi ham bir qator tasviriyy vositalarning ishtirokiga bog'liq. Mana shunday badiiy uslub uchun ahamiyatli bo'lgan, troplar guruhiga kiruvchi tasvir vositalarining asosiylaridan biri metofara haqida fikr yuritish ekanmiz, Oybek asarlarida ko'plab misollar uchratdik. Oybek metaforani o'z asarlarida maharot bilan foydalanganligini kuzatamiz.
6. Modallik semantikasining mohiyati matn tarkibida namoyon bo'ladi. Matnda modallik uzatilayotgan axborotning voqelikka bo'lgan turlicha munosabati hamda ushbu muloqotga muallif va adresat tomonidan berilayotgan turlicha sifat va qiymatli bahodir. Bu ikki turdagi munosabat referentiv va subyektiv modallik mazmunlarini shakllantiradi.
7. Modallik hodisaning mundarijasi uning umumlisoniy kategoriya ekanidan dalolat bersa, mohiyati esa yaxlit kommunikativ birlik - matn tarkibida namoyon bo'ladi. Modallik mazmuni matn yaratilishi sharoitida tilning kommunikativ va gnoseologik vazifalarining o'zaro munosabati asosida shakllanadi va shu sababli matn modallik maydoni mundarijasini lisoniy faoliyatning tarkibiy bo'laklari (muallif, retsipient, matn, voqelik) o'rtasidagi munosabatlar ko'rinishida tasavvur qilish lozim.

8. Subyektiv modallik ma'nolarining hosil bo'lishi gnoseologik faoliyat natijasidir. Voqelikni bilish jarayonida tug'iladigan fikrlarning farazli, ehtimolli, ishonchli yoki mumkinlik darajasida bo'lishi subyektiv modallikning emotiv, epistemik, deontik, aksiologik ma'nolarga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Inson lingvokognitiv faoliyatining mahsuli bo'lgan baholash maqsadi va shu maqsadga yo'naltirilgan harakatlar matn aksiologik modalligining hosil bo'lishi uchun zamin hozirlaydi. Ushbu turdagi modallik mazmunini yaratuvchi lisoniy birliklar matn tizimining qariyb barcha qismlarida uchraydi va voqealar, predmetlar, peyzaj ko'rinishlari qiymat tasviri bahosini berayotgan bu birliklar badiiy matnda asar g'oyasiga xos bo'lgan obrazlar tizimini yaratish vositasiga aylanadi.

9. Ushbu tadqiqot Oybekning "Quyosh qoraymas" asari tilini, uning ijodiy faoliyati mahsulini umumfilologik yo'nalishda, "shaxs va lisoniy faoliyat" hamda "til va voqelik" yo'nalishlari nuqtai nazaridan o'rganishda muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari, ushbu ishning natijalari kelajakda Oybek uslubi va tilini yanada chuqurroq, zamonaviy tahlil metodlari vositasida nazariy va amaliy maqsadda o'rganish uchun ma'lum darajada turtki bo'lib xizmat qiladi, degan umiddamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Ijtimoiy- siyosiy adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. – T: O'zbekiston, 2008. 176 b.
2. Karimov I. A. Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. – T: O'zbekiston, 2010. 40 b.
3. Karimov I. A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T: O'zbekiston, 1997. 238 b.
4. Karimov I. A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. – T: O'zbekiston, 1997. 214 b.
5. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. – T: O'zbekiston, 1996. 186 b.
6. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T: O'zbekiston, 1997. 326 b.

II. ILMIY – NAZARIY ADABIYOTLAR:

7. Abdullayev A. O'zbek tilida ekspressivlik ifodalashning sintaktik usuli.
–T: Fan, 1987. 88 b.
8. Abdurahmonov G'. O'zbek adabiy tilining stilistik normalari //O'zbek tili nutq madaniyatiga oid masalalar. – T. 1973. 51-55 b.
9. Abdurahmonov G'. Yozma nutq uslubini yaratuvchi vositalar // O'zbek tili va adabiyoti. 1994. 3-son. 22-32 b.
10. Abdurahmonov H, Mahmudov N. So'z estetikasi. – T. 1981. 60 b.
11. Begmatov E., Ne'matov H., Rasulov R. Leksik mikrosistema va uning tadqiq metodikasi. (_Sistem leksikologiya tezislari) // O'zbek tili va adabiyoti. 1989.
6-son. 35-40 b.
12. Begmatov E., Tursunpo'latov M. O'zbek nutq madaniyati asoslari. – T. 1991. 176 b.
13. Bozorov O. Qo'shma gaplarning kommunikativ tuzilishi xususida. // Til va adabiyot ta'limi. 2003. 5- son. 30-33 b.
14. Doniyorov X., Yo'ldoshev B. Adabiy til va badiiy still. – T: Fan, 1988. 208 b.
15. Yoqubov H. O'zbek prozasida uslub rang-barangligi // O'zbek adabiyotida janrlar tipologiyasi va uslublar rang-barangligi. – T. 1983. 9-36 b.
16. Yoqubova G. Oybekning “O'ch” poemasi matnining yaratilish tarixiga doir // O'zbek tili va adabiyoti, 1974. 3- son. 40-44 b.
17. Yo'ldoshev B. Badiiy nutq stilistikasi. Samarqand. 1982. 82-b.
18. Karimov N. Oybek. – Toshkent. 1985.
19. Karimov S. Oybek romanlarining tili haqida mulohazalar // O'zbek tili grammatik qurilishi va stilistikasi masalalari. – Samarqand. 1995. 10-15 b.
20. Karimov S. O'zbek tilining badiiy uslubi. – Samarqand: Zarafshon, 1992.

140 b.

21. Karimov S. Badiiy uslub va tilning ifoda tasvir vositalari. – Samarqand: SamDU, 1994. – 72 b.

22. Mamajonov S. Uslub jilolari. – T: Fan, 1972. 220 b.

23. Mirzayev I. Lingvistik poetika va uning filologik tahlildagi o'рни // Lingvopoetika masalalari. – Samarqand: SamDU, 2002. – 72-76 b.

24. Ne'matov H. So'z, uning til va nutqdagi o'рни // O'zbek tili va adabiyoti. 1972. 2-son. 42-49 b.

25. Nizomxonov H. Oybekning sinonimik vositalar ustida ishlashi haqida // O'zbek tili va adabiyoti. 1986. 3-son. 24-28 b.

26. Oybek. O'zbek poeziyasida til. Mukammal asarlar to'plami. IX tom.

– T: Fan, 1974. 238-244 b.

27. Rustamov A. So'z haqida so'z. – T: Fan, 1987. 160 b.

28. Sabirdinov A. Oybek she'riyatida istiora va obraz // O'zbek tili va adabiyoti. 1989. 5- son. 46-51 b.

29. Sabirdinov A. Oybek she'riyatining evfonik xususiyatlari // O'zbek tili va adabiyoti. 1987. 6- son. 60-65 b.

30. Sabirdinov A. So'zning poetik kontekstdagi xususiyatlari // O'zbek tili va adabiyoti. 1990. 6- son. 42-46 b.

31. Sabirdinov A. Oybek she'riyatida so'z va obraz. Fil. Fan. Nomz... diss. Avtoref. Toshkent. 1993. 22 b.

32. Sa'dullayev N. Oybek til va termin haqida // O'zbek tili va adabiyoti. 1972. 4- son. 82-84 b.

33. Saidnosirova Z. Oybegim mening. T: Sharq, 1994. 255 b.

34. Samadov Q. Oybek- so'z san'atkori. – T: O'zbekiston, 1965. 32 b.
35. Samadov Q. Voqelik va badiiy so'z //Sharq yulduzi. 1970. 1- son.195-206 b.
36. Samadov Q. Oybekning til mahorati. – Toshkent. 1981. – 154 b.
37. Samadov Q. O'zbek tili uslubiyati. T: O'qituvchi, 1991.
- 38.Samadov Q. Oybekning “Bolalik” asari va uning tili haqida // O'zbek tili va adabiyoti. 1964. 6-son. 26-32 b.
39. Samadov Q. Oybekning so'z davlati. – Guliston. 1993. 33 b.
40. Umurqulov B. Badiiy adabiyotda so'z. T: Fan, 1993. 132 b.
41. Umurqulov B. Nasriy matnda so'z // Til va adabiyot ta'limi. 2002. 5- son. 22-24 b.
42. Shoabduraxmonov Sh. Oybek romanlarining tili // Sharq yulduzi. 1955. 10- son. 106-116 b.
43. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov I., Rustamov X. O'zbek tili stilistikasi. T: O'qituvchi, 1983. 248 b.
44. O'zbek xalq maqollari. T: Fan, 1987. 368 b.
45. O'zbek tilining izohli lug'ati. I- tom. – Moskva. 1981. 631 b.
46. O'zbek tili leksikologiyasi. – T: Fan, 1981. 314 b.
47. Qo'ng'urov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. – Toshkent. 1977. 172 b.
48. Qo'chqortoyev I. Badiiy nutq stilistikasi. – Toshkent. 1975. 96 b.
49. Qodirov M. Badiiy asar tilini o'rganish masalalari // O'zbek tili va adabiyoti. 1987. 3- son. 43-44 b.
50. Qo'shjonov M. Oybek mahorati. – T: Fan, 1965. 356 b.

III. BADIY ADABIYOTLAR

- 51.Oybek. Navoiy. Roman. Mukammal asarlar to'plami. Oltinchi tom. T: Fan, 1976. 446 b.
- 52.Oybek Bolalik. Alisherning yoshligi. Povestlar. Mukammal asarlar to'plami. O'n birinchi tom. – T: Fan, 1977. 330 b.
- 53.Oybek Qutlug' qon. Roman. Mukammal asarlar to'plami. Beshinchi tom. – T: Fan, 1976. 358.
- 54.Oybek. Oltin vodiya shabadalar. Roman. Mukammal asarlar to'plami. Yettinchi tom. – T: Fan, 1976. 447 b.
- 55.Oybek. Quyosh qoraymas. Roman. Mukammal asarlar to'plami. Sakkizinchi tom. – T: Fan, 1977. 223 b.
- 56.Oybek. Ulug' yo'l. Roman. Mukammal asarlar to'plami. To'qqizinchi tom. – T: Fan, 1977. 420 b.

IV. INTERNET SAYTLARI:

57. www.ziyounet.uz.
58. www.ziyouz.com.